

ABITURIYENT


01 (256)
25-yanvar
2018-yil

XXI ASR- BILIMLAR ASRI

06:06
04 KUN

GOLD

O'ZBEKISTONDA NECHTA OTM BOR?



2017-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 72 ta oliy ta'lim muassasasi va 19 ta filiallar mavjud bo'lib, ularning tarkibida 4 ta akademiya, 7 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari, 27 ta universitetlar va 4 ta oliy diniy ta'lim muassasa hamda filiallari faoliyat yuritmoqda. Bu haqda Davlat statistika qo'mitasi xabar berdi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarga asosan, 2017/2018-o'quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga jami 80822 nafar, shu jumladan 18439 nafari davlat grantlari asosida, 62383 nafar yoshlar esa shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan.

2017/2018-o'quv yili boshida qabul qilingan talabalarning 71838 nafari kunduzgi, 8984 nafari 20 ta oliy ta'lim muassasasi va 1 ta filialda tashkil etilgan sirtqi kurslarda ta'lim olayotgan bo'lib, sirtqi kurslarga qabul qilinganlarning 77,8 foizini qizlar tashkil etadi. Ma'lumot uchun, 2016/2017-o'quv yilida jami 110 nafar talaba sirtqi kurslarga qabul qilingan.

O'ZBEKISTONDA QABUL KVOTALARI KAMIDA 20 FOIZGA OSHIRILADI

Joriy yilda mamlakat oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari 2017/2018-o'quv yiliga nisbatan kamida 20 foizga oshiriladi. Bu muhokama uchun e'lon qilingan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida ko'zda tutilgan.

Mahalliy nashrlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, buning uchun davlat byudjeti va to'lov-shartnoma mablag'lari hisobidan 91 milliard so'm sarflanadi.

Bu loyihada fuqarolarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqining faol a'zolarini oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish uchun tavsiyanoma olgan abituriyentlar hamda haqiqiy harbiy xizmatni o'tagan va tegishli sertifikatni olgan yigitlarni oliy ta'lim muassasasiga alohida kvotalar bo'yicha qabul qilish nazarda tutiladi.

Shuningdek, xorijiy universitetlarda zarur mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish va kadrlar

malakasini oshirish ishlarini kengaytirish uchun 30 milliard so'm yo'naltiriladi.

Rejaga ko'ra, kadrlar malakasini oshirish maqsadida eng nufuzli xorijiy ta'lim muassasalarini o'rganib, ular bilan uzoq va o'rta muddatli tegishli bitimlar tuzish ko'zda tutilgan. Xorijga o'qitishga yuboriladigan iqtidorli va istiqbolli mutaxassislarni tanlab olish tartibi tuziladi, mutaxassislarning xorijda ta'lim olishi va malakasi oshirilishini tizimli ravishda amalga oshirish, ularni davlat byudjeti va homiylik mablag'lari hisobidan xorijga yuborish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.



JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYA VOSITALARI UNIVERSITETI TASHKIL ETILADI

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnomasiga bag'ishlangan anjuman bo'lib o'tdi. Bu haqda O'ZA xabar bermoqda.

Bugungi kunda yurtimizda 1 ming 500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Ular mulk shakli, yo'nalishi, axborot uzatish vositalariga ko'ra turlichadir.

O'z-o'zidan ravshanki, ularning barchasiga yuqori malakali kadrlar kerak. Afsuski, bunday keng ko'lamli vazifani bir joyda markazlashtirgan holda hal etadigan tayanch oliy o'quv yurti mamlakatimizda mavjud emas, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu maqsadda Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya vositalari universitetini tashkil etish zarurligi qayd etildi.


TOSHKENTDAGI TURIN POLITEKNIKA UNIVERSITETI BAZASIDA AVIAKOSMIK INJINIRING SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLANADI

O'zbekiston hukumati 19-dekabrda qarori bilan Toshkentdagi Turin politexnika universiteti bazasida "O'zbekiston havo yo'llari" ehtiyojlari uchun "Aviakosmik injiniring" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni maqsadli tayyorlash to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

"O'zbekiston havo yo'llari"ning havo kemalari-ga texnik xizmat ko'rsatish va aeroportlarni ekspluatatsiya qilish bo'yicha muhandislarga bo'lgan talabini hisobga olgan holda 2017/2018-o'quv yilida "Mashinasozlik texnologiyasi" yo'nalishi bo'yicha bakalavriatning uchinchi bosqichi bazasida 25 kishidan iborat talabalar guruhini tayyorlashga kirishiladi.

"Aviakosmik injiniring" yo'nalishiga yillik qabul kvotasi Milliy aviakompaniyaning mutaxassislarga bo'lgan talabi asosida belgilanadi.

Talabalar yangi yo'nalish bo'yicha "O'zbekiston havo yo'llari" korxonasi bazalarida malakaviy amaliyotni o'taydilar.



2018/2019 - O'QUV YILIDA TIBBIYOT OLIYGOHLARINING MAQSADLI QABUL KVOTALARI OSHIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 12-dekabr kuni mamlakatimiz tibbiyot sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Bu haqda "O'zbekiston24" telekanali orqali xabar berildi.

Kadrlar ta'minoti masalasi yechimi sifatida Sog'liqni saqlash vazirligi, hududiy

hokimliklar bilan birgalikda tibbiyot kadrlariga bo'lgan ehtiyojni hududlar, tumanlar va muassasalar kesimida aniqlash, 2018-yilda bakalavriat ta'lim yo'nalishining maqsadli qabul kvotasini 2017-yilga nisbatan 20 foiz oshirish, maqsadli magistraturani 10 foiz, klinik ordinatura qabul kvotasini 15 foiz oshirish belgilandi.

1. Ko'zlar qora charosdan,
Lablar qizil gilosdan,
O'zim bilmay bexosdan
Yaxshi ko'rib qoldim-da.

Berilgan parchada sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar nechta o'rinda qo'llangan?

- A) 5 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 4 ta

2. Zoringman xazonga belangan, bemakon, bag'ri qon, sevgida yongan,

Yoringman begona aylangan, ko'zingdan, so'zingdan o'zin qidirgan.

Berilgan jumla haqidagi noto'g'ri mulohazani aniqlang.

- A) Barcha sifatdoshlar aniqlovchi vazifasida qo'llangan.
B) Fe'llar aniq, o'zlik va majhul nisbat shakllarida.
C) Ikki o'rinda so'z yasovchi qo'shimcha qo'llangan.
D) Bir o'rinda kelishik qo'shimchasi belgisiz qo'llangan.

3. Qaysi qatorda fonetik hodisalar soni nisbatan ko'proq?

- A) O'sha kun men mast edim,
Mast edim, menmas edim.
B) Bu olamning jumbog'i ko'p,
Bu olamning so'rog'i ko'p.
C) Olamda yolg'izim, unutmam bir so'zim,
Sening-la men faqat qirolichaman.
D) Yuragida bormi deya tugun,
Qaydaligim so'rarmikan deb.

4. Qora ko'zlar meni hayron ayladi,
Boqishi dardima darmon ayladi.
Bu xumor ko'zlari olsa bu jonimni, netay?
Yorim mani nega tanho ayladi?

Ushbu parchada olmosh turkumiga mansub so'zlar nechta?

- A) 6 ta B) 7 ta C) 5 ta D) 4 ta

5. Yuzung goho oy misoli
Goho mutlaq qiyosi yo'q.
Oy qiyosi, kun adosi,

...

Subhoniy qalamiga mansub ushbu she'rning tushirib qoldirilgan misrasi qaysi bandeda berilgan?

- A) Goho mutlaq yo'q qiyosi.
B) Kun adosi, oy qiyosi
C) Misoli yo'q, adosi yo'q.
D) Hiloli yo'q, toboni yo'q.

6. Sarlavhaga olingan so'zni she'rning ichida qo'llamagan shoir(lar) haqida qaysi qatorda to'g'ri ma'lumot berilgan?

1. Ijodiy merosida "Bedil" nomli ilmiy-ommabop ocherk mavjud.

2. Ilk to'plami "Shu'lalar qo'ynida" nomi bilan nashr etilgan.

3. "Shu'lalar qo'shig'i" nomli she'riy to'plami mavjud.

4. 1913-yilda "Turon" nomli jamiyat ochgan.

- A) 1 va 3 B) 3 va 4 C) 1 va 2 D) Faqat 2

7. "Monolog" she'rida keltirilgan "guldan yaralgan pari" kimning sevgani edi?

- A) Hamlet B) Tasso
C) Dante D) Petrarka

8. Navoiyning eng buyuk asarini aniqlang.

- A) "Lison ut-tayr" B) "Xamsa"
C) "Xazoyin ul-maoniyy" D) "Mezon ul-avzon"

9. Urg'u ma'no farqlash vazifasini bajaruvchi so'zlarni aniqlang.

- 1) soya; 2) kunda; 3) sizsiz; 4) o'zbekcha

- A) 1,2,3,4 B) 2,3 C) 1,2,3 D) 1,3

10. Qaysi qatorda *endi* so'zi yuklama vazifasida kelgan?

- A) Endi ketsam ham bo'lar, boy ota, bu yerda men qiladigan ish qolmadi.

- B) Nega endi sening muammolaringni men hal qilishim kerak?!

- C) Biz o'zga yurtdamiz, endi erkaliklaring o'tmaydi.

- D) U endi baqiraman deb turgan edi, kimdir kelib og'zini mahkam yopdi.

11. Mana shunday sharoitda har jihatdan bilimdon va til biladigan kishini ko'rsangiz, og'zingiz ochilib qolishi turgan gap edi.

Berilgan gapda fe'lning qanday vazifa shakllari qo'llangan?

- A) 1 ta harakat nomi, 2 ta sifatdosh, 1 ta sof fe'l

- B) 1 ta harakat nomi, 1 ta sifatdosh, 1 ta ravishdosh, 1 ta sof fe'l

- C) 1 ta harakat nomi, 2 ta sifatdosh, 1 ta ravishdosh, 1 ta sof fe'l

- D) 1 ta harakat nomi, 1 ta sifatdosh, 1 ta ravishdosh

12. Qaysi gapdagi murakkab kesim tarkibida o'zlik nisbati shaklidagi yasama fe'l mavjud?

- A) Oyqizning yuzlari qizarib ketdi, uyalganidan boshini quyi solib, indamay qoldi.

- B) Ko'zlari tolib, endigina uyquga ketgan Oyqiz yarim kechada qichqirgan xo'rozning bo'g'iq ovoizidan uyg'onib ketdi.

C) Samarqand hokimi maktubni avaylab naycha holiga keltirdi-da, bir lahza Chorsu tomonga, uzoqlarga tikildi.

D) Oyqiz o'z-o'zicha o'ylanar edi.

13. Qaysi gapda o'z shakldoshiga ega bo'lgan so'z qaralmish vazifasida qo'llangan?

A) Urushning urushdan farqi bor.

B) Yurtimiz o'g'il-qizlarining dunyo yoshlari o'rtasida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi odatiy holga aylanmoqda.

C) O'zimning ishim boshimdan oshib yotibdi.

D) Notovon qulingizning boshidan mundoq savdolar ham o'tgan.

14. Qaysi qatorda keltirilgan qo'shma gapni sodda gapga aylantirganda murakkablashgan sodda gap hosil bo'ladi?

A) Bundog' xomxayolga berilganimning boisi shundaki, maoshgacha yetti kun qolgan edi.

B) Bir o'lib-tirilgan kimsaning umri uzoq bo'ladi, deydi.

C) Har nechuk, shu narsaga iqrormanki, muhabbat savdosining katta-kichigi bo'lmas.

D) Bir sevgikim, jon berur tanga.

15. "Turon malikasi" asari muallifi ...ning o'zbek adabiyotidagi ilk namunasini yaratdi.

Nuqtalar o'rnida qanday so'zlar bo'lishi kerak?

A) roman-dilogiya

B) shavqatsiz realizm

C) she'riy roman

D) kontrast usuli

16. Xalq dostonlarida qaysi qahramon "quralay ko'z" deya ta'riflanadi?

A) Zulxumor

B) Bahragul

C) Xolbeka

D) Gulnor

17. Ma'shuqaning o'z yoriga xat yo'llash epizodi qaysi asarda uchraydi?

A) "O'tkan kunlar"

B) "Qutlug' qon"

C) "Qiyomat qarz"

D) "Mehrobdan chayon"

18. Lutfiyga xos lutf bilan yaratilgan asarni aniqlang.

A) "Ayoqingg'a tushar har lahza gisu..."

B) "Bu ko'nguldur, bu ko'ngul"

C) "Xoh inon, xoh inonma"

D) "Ne bo'lursan?"

19. Qaysi so'zning yasovchi asosi shaxsga munosabatni ifodalaydigan qismni qabul qilsa, bir so'zda ikki shakldosh o'zgaruvchi qismning ketma-ket kelganiga guvoh bo'lishimiz mumkin?

A) manmansiramoq

B) sizsizlik

C) bilimdon

D) qaysinisi

20. Yordamchi so'zlarning qaysi guruhi faqat yozma nutq uslubida qo'llanadi?

A) ta'kid yuklamalari

B) shart bog'lovchilari

C) gumon yuklamasi

D) ayiruv bog'lovchilari

21. Shunisi borki, bu yerda ichkilik borasida «qatron qonuni» juda qattiq qo'yilgan.

Ergashgan qo'shma gap turini aniqlang.

A) ega ergash gapli qo'shma gap

B) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

C) hol ergash gapli qo'shma gap

D) kesim ergash gapli qo'shma gap

22. Umrim davomida kam bilim olganim, ko'proq hunar o'rganmaganim, ustuvor zakovatga erishmaganim mening xatolarimdir.

Ushbu gapda nechta yopiq bo'g'in tarkibida m tovushi qo'llangan?

A) 5 ta

B) 7 ta

C) 8 ta

D) 9 ta

23. Qaysi qatordagi juftliklarda qo'llangan fonemalar tovushlarning fiziologik tomoni nuqtayi nazaridan farqlanmaydi?

A) xiyla – hiyla

B) tanbur – tambur

C) band – pand

D) o'git – o'g'it

24. "Ayriliqqa yo'q bardosh, qiynog'iga qilolmam toqat, biroq yig'lamoqqa ko'zlar norizo" gapida so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida nechta fonetik hodisa yuz bergan?

A) 8 ta

B) 7 ta

C) 3 ta

D) 4 ta

25. Sulton suyagini xo'rlamas.

Ma'no ko'chishi turini aniqlang.

A) metafora

B) metonimiya

C) sinekdoxa

D) vazifadoshlik

26. Ikki so'zni bir-biriga qo'shish usuli (kompozitsiya) orqali hosil qilingan yasalmalarni aniqlang.

1) har yerda; 2) borib kelmoq;

3) qo'shma korxona; 4) ishlab chiqarish

A) 1,2,3,4

B) faqat 4

C) 2 va 4

D) 1,2,3

27. Qaysi gapda bir kesimga bog'langan ikki ega uyushmagan holda qo'llangan?

A) Aql pinhon hamda zohir olam u.

B) Hasadchi o'z hasadi ta'siridan bir kun o'zi halokat chuquriga yiqiladi.

C) O'g'lim, qo'zichog'im, senga nima olib kelay.

D) Mehr qolur, muhabbat qolur.

28. Qaysi gapda birdan ortiq birlik imlo jihatidan xato yozilgan?

- A) Birniki minga, mingniki tumanga.
- B) Tatqiqotlar natijasi amalga tatbiq etilayotir.
- C) Shu yili milliy valutamiz miomalaga kiritildi.
- D) Bu filmda orzuyimdagi ro'lni ijro etyapman.

29. Biroz yurishgandan so'ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so'rabdilar.

- Mazkur gapda qaysi turkumga doir so'z qo'llanmagan?
- A) ravish
 - B) yasama fe'l
 - C) sifatdosh shaklli fe'l
 - D) sof ko'makchi

30. Qaysi gapda shakldosh qo'shimchalar uchraydi?

- A) Yuzimga qarab turib "sensiramang" deydi-ya?!
- B) Shundan so'ng To'maris qo'shin to'plab, jangga o'tlandi.
- C) Qizlar o'zaro sekin suhbatlashib turishardi.
- D) Maktabimiz muzeyi yangi eksponatlar bilan boyitildi.

31. Bilgan topib gapirar, Bilmagani - qopib.

Berilgan jumla haqidagi to'g'ri mulohaza(lar)ni aniqlang.

- 1. Barcha so'zlar bir turkumga mansub.
- 2. Barcha so'zlar tub.
- 3. Barcha so'zlar fe'lning bir nisbat shaklida.

- A) 2, 3
- B) faqat 1
- C) 1, 3
- D) 1, 2

32. Qaysi bandda so'z imlosida xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) Bolta tushkuncha, kunda dam olar.
- B) Betga aytganning zahri yo'q.
- C) Burgaga achchiq qilib, ko'rpangni kuydirma!
- D) Arslon izidan qaytmas, Yigit - so'zidan.

33. V - V - / V V - - / V - V - / - -

Ushbu taqte'ga mos baytni belgilang.

- A) Sensen sevarim, xoh inon, xoh inonma, Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma
- B) Qaro ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il, Ko'zum qarosida mardum kebi vatan qilg'il
- C) Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin, Ko'ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!
- D) Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit, Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit

Adabiyot muallifga insoniy ongni saqlab qolish imkonini beradi, adabiyot bizning o'zimiz bilan o'zimiz gaplashadigan narsalardan boshlanadi. Bu o'rinda o'zaro aloqa ikkilamchi vazifa. Adabiyotni bizning ichki his-tuyg'ularimizning amalga oshishiga bo'lgan ehtiyojimiz paydo qiladi. Kitob, jamiyatga ta'sir etadimi, yo'qmi - bu boshqa masala, bu savolning javobi uning muallifiga mutlaqo bog'liq emas.

Gao Sintszyan

Adabiyot tufayli, adabiyot uyg'otgan tafakkur, intilish va istaklar tufayli, xayolot saltanatiga safar chog'i ko'ngilda bosh ko'targan kechinmalar tufayli bugungi tsivilizatsiya odamiylashdi, najot topdi. Adabiyot ahli o'ylab topgan badiiy to'qima qumga singigan suvdek izziz ketmadi, bil'aks toshga aylangan yuraklarni mumdek eritdi. Yaxshi kitoblar bo'lmaganida edi, insoniyatning bugungi holiga maymunlar yig'lagan bo'lardi, mustaqil fikrdan mahrum labbaychilar urchib ketardi, ko'ngil birligi yo'qolardi, mutelik kayfiyati keng tarqalib, o'z-o'zini anglash tuyg'usi - taraqqiyotning yetakchi omili - yo'qolardi.

Mario Vargas Losa

34. "Kitoblar jangi" asarining muallifiga tegishli ma'lumotni aniqlang.

- A) Ilk asari "Improvizator" nomi bilan e'lon qilingan.
- B) Asarlaridan biri "Alanga" mukofotiga sazovor bo'lgan.
- C) Vilyam Templning saroyida kotib bo'lib ishlagan
- D) Asarlaridan biri Gran Pri mukofotiga sazovor bo'lgan

35. Jo'rxonning vafotiga bag'ishlab yozilgan asarni aniqlang.

- A) "Sog'indim"
- B) "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush"
- C) "Sog'inish"
- D) "Ayrildim"

36. Qaysi asar qahramonlari havorang libosda tasvirlangan?

- A) Jannat xola ("Ufq"), Mehr ("Sab' ai sayyor")
- B) Mehr ("Sab' ai sayyor"), Zebi ("Qiyomat qarz")
- C) Hakima aya ("Dunyoning ishlari"), Umri xola ("Urushning so'nggi qurboni")
- D) Zebi ("Qiyomat qarz"), Zebi ("Ufq")

"Navoiy" ATM o'qituvchisi Mansur SIDDIQOV.
Dilbar HAYDAROVA savollaridan foydalanildi.

Ushbu test yuzasidan fikrlaringizni telegram tarmog'ida
@tilUZ; @abituriyentgazeta va

f www.facebook.com/groups/Abituriyentuz manzilida kutamiz.

1. Qaysi soʻzda jarangsizlardan jaranglilar, sirgʻaluvchilardan portlovchilar soni koʻproq?

- A) tarix B) kimyo
C) fizika D) matematika

2. Qaysi soʻzning morfemalari va boʻgʻinlari soni "serfarzandlik" soʻziniki bilan bir xil?

- A) bosqinchilik B) aybdorlarcha
C) oʻzimizniki D) chaqiraylik

3. Qaysi gapdagi mantiqiy urgʻu olgan soʻzning urgʻuli boʻgʻini ot turkumidagi soʻzga shakldosh?

- A) Yaqinda uning uyiga qarindoshlar kelishgan edi.
B) Unsinning togʻalari – bagʻrikeng odamlar.
C) Olgan narsalarimni egasiga bus-butun qaytarganman.
D) Har bir savolga oʻylab javob ber.

4. Qaysi birikmada paronimlarni chalkash qoʻllash bilan bogʻliq xatolik kuzatiladi?

- A) asl yurak sohibi B) xiyla koʻp
C) xayr kutmoq D) kuppa-kunduzi toʻnamoq

5. Asosi va yasalişga asos qismi bir turkumga mansub soʻzni aniqlang.

- A) qaqshatqich B) quchoqlab
C) oʻynoqiroq D) atamalar

6. Bu kabi illatlarning ildizini aniqlash va uni yoʻq qilishga kirishish lozim.

Maʼno koʻchishi turini aniqlang.

- A) metafora B) metonimiya
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

7. Qaysi gapda "yasama soʻz + feʼl" qolipida hosil qilingan qoʻshma feʼl ishtirok etgan?

- A) Doʻkondan bitta soʻrgʻich sotib oldik.
B) Oʻsha jiyaningiz ketma-ket sakkiz marta aksa urar edi.
C) Ortiqcha gapni yigʻishtiring va ochiqroq gapiring.
D) Yupun kiyinganimiz uchun oʻsha kuni sovuq qotdik.

8. Bir yoki har ikki qismi ham mustaqil qoʻllana olmaydigan juft soʻzlarni aniqlang.

1) maza-matra; 2) ichak-chavoq; 3) qoʻni-qoʻshni; 4) adibadi; 5) kuppa-kunduzi; 6) chala-chulpa.

- A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6
C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 3, 5

9. Kulma, desalar, kulmay qoʻymas, Xoʻp demoqni bilarmi oʻzi?

Ushbu parchada qaysi mayl shaklidagi feʼllar qoʻllangan?

1) xabar; 2) shart; 3) buyruq; 4) maqsad.

- A) 2, 3 B) 1, 2, 3
C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4

10. Qaysi gapda boʻlmoq soʻzi mustaqil feʼl emas?

- A) U oʻsha kuni uyida boʻlgan edi.
B) Bu voqea sentabrning boshlarida boʻlgan edi.

- C) Zilziladan soʻng koʻp uylar vayron boʻlgan edi.
D) Tezroq boʻl, yana qancha kutaman seni?

11. "Changitmoq" va "kiritmoq" feʼllari qaysi jihatlariga koʻra farqlanadi?

- 1) morfemalar soniga koʻra;
2) nisbat shakliga koʻra;
3) ochiq boʻgʻinlar soniga koʻra;
4) tovushlari soniga koʻra.

- A) 3, 4 B) 1, 2, 3
C) faqat 1 D) faqat 3

12. Qaysi gapda kelishik qoʻshimchalari soni 2 tadan ortiq?

- A) Buning bizga non-pon olib kelishi dargumon.
B) Birdan xayolga choʻmdim-u, oʻzimni togʻda koʻrdim.
C) Shuning bilan sizga ajratilgan vaqt nihoyasiga yetdi.
D) Qogʻoz narxi oshishi bilan kitoblar ham qimmatlashishi turgan gap.

13. Orttirma nisbat qoʻshimchasi qaysi gapdagi feʼlda uchraydi?

- A) Isitkichlar holati qayta tekshirilar, balki.
B) Yomonlik qilmaki, oʻzingga qaytar bir kun.
C) Orttirma nisbat shakli bir soʻzga birdan ortiq qoʻshilishi mumkin.
D) Chiqarilgan qarordan quad tomon norozi boʻlishdi.

14. Qaysi gapda imloviy xatoga yoʻl qoʻyilgan?

- A) 1-oktabr – Oʻqituvchi va murabbiylar kuni.
B) "Bu sirni faqat senga aytayapman", – dedi u.
C) Koʻkcha, qirqma, shakarpalak, obinovvot – barchasi mashhur qovun navlaridir.
D) Oʻzingdan chiqqan baloga qayga borasan daʼvoga?

15. Qaysi qatorda otlashmagan sifatdosh qoʻllangan?

- A) Bilganimni aytdim, qolganidan bexabarman.
B) Bu yerdagilar – urush olovida yonganlar.
C) Sobirjon ham bultur kelib ketgan edi.
D) Zulm meni sevar yorimdan judo qildi.

16. Hosilboy roʻparasida turuvchiga ishonqiramayroq qarab turar edi.

Ajratib koʻrsatilgan soʻz tarkibida qanday koʻmakchi morfemalar mavjud?

- A) 3 ta lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha
B) 2 ta lugʻaviy, 1 ta sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha
C) 3 ta lugʻaviy, 1 ta sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha
D) 1 ta soʻz yasovchi, 2 ta lugʻaviy, 1 ta sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha

17. Ertaga tongda karvonsaroydan otlanamiz: biroq uzoqroqqa ketishimiz kerak edi.

Gapdagi ravishlar sonini aniqlang.

- A) 3 ta B) 5 ta
C) 2 ta D) 4 ta

18. Meni bu mitinglarga borishga nima chorlaganini hanuz tushunolmayman.

Ismlar soni nechta?

- A) 4 ta B) 6 ta
C) 7 ta D) 3 ta

19. Toshlon o'ldi, degan kim axir?
Gulday so'ldi, degan kim axir?
Nahot poymol qutlug' ishq ahdi,
Bol bo'lurmi shunchalar taxir?

Ushbu parchada yuklamalarning qanday turlari qo'llangan?

- A) so'roq va kuchaytiruv-ta'kid
B) so'roq va inkor
C) ayiruv-chegaralov, kuchaytiruv-ta'kid
D) kuchaytiruv-ta'kid

20. Shaxsi ma'lum gap qaysi qatorda berilgan?

- A) O'zi bilmaganini bizdan so'rar edi.
B) Kimligim o'zimga ayon-ku, axir?!
C) Mehmonlar uchun mushakbozlik uyushtirildi.
D) Tezroq keyingi testga o'tish kerak.

21. Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

- A) Nima ro'zg'orga kerak bo'lsa, dadam o'shani bozordan keltiraverar edi.
B) Bu savollardan ma'lum bo'ldiki, aybnoma uydirma emas.
C) Shunda bildim aldab qochganin va gaplari chin emasligin.
D) Xulosam shu: befoydadir tunda dars qilmoq.

22. Qaysi qatorda so'z birikmasi berilgan?

- A) qochib qolmoq B) olib kirmoq
C) sog'inib kelmoq D) sevintirib qo'ymoq

23. O'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatligini darajasini anglatuvchi modal so'zlarni belgilang.

- A) menimcha, aytishlaricha
B) asosiy, ikkinchi darajali
C) birinchidan, ikkinchidan
D) avvalo, demak

24. Bayon qilishlaricha kirish so'zi qaysi uslubga xos?

- A) badiiy B) publitsistik
C) so'zlashuv D) ilmiy

25. Shuhratning dastkabgi asarlari keltirilgan qatorni aniqlang.

- A) „Orzu va qasos“ dostoni, „Mehrol“ ertak-dostoni
B) „Uch qiz afsonasi“ va „Guldursun“ balladalari
C) „Farzand“ va „So'Imas chechaklar“ dostonlari
D) „Ona va farzand“ va „Raymonda“ balladalari

26. „Agar mening ustimdan qo'rqqoq deb yana kulsangiz, endi ajdarni tutib kelaman“, - deb kim kimga aytadi? („Me'mor“)

- A) Badia / G'avvosga
C) G'avvos / Zavrakka

- B) Zavrak / Zulfiqorga
D) Badia / Zavrakka

27. Bir qofiyani ham matla'da, ham maqta'da qo'llanishi qanday nomlanadi?

- A) radd ul-matla' B) radd ul-qofiya
C) musajja' D) zulqofiyatayn

28. Maxtumquli ijoddan tashqari qaysi kasbni o'zlashtirgan edi?

- A) miroblik B) kosiblik
C) zargarlik D) telpakdo'zlik

29. Shamollarga ko'krak ochgan shoir kim?

- A) Abdulla Oripov B) Erkin Vohidov
C) Xayriddin. Saloh D) Usmon Nosir

30. Ta'lim-tarbiyaga oid „Kitob ul-atfol“ („Bolalar uchun yozuv kitobi“) qo'llanmasi muallifi kim?

- A) Avloniy B) Fitrat
C) Behbudiy D) Hamza

31. „Umrida hech kitob ko'rmay ulg'aygan“ obraz kim?

- A) Ulfat („Sarob“)
B) Amir Husayn („Sohibqiron“)
C) Qamariddin („Alvido, bolalik“)
D) Kulonkir Sulton („Zarbulmasal“)

32. „Biroz kul“ she'rida muallif (Fitrat) kimdan kulishini so'raydi?

- A) yulduzdan B) ko'z yoshidan
C) qizil guldin D) qora bulutdan

33. „Kichkina Shahzoda“ ertagida Kichkina Shahzoda uchuvchi chizib bergan baobab daraxtini nimaga o'xshatadi?

- A) uzun shoxga B) karamga
C) no'xtaga D) sharfga

34. Joni xazin yuzung birla iringni sog'inib,

Savdoyilar bikin gul-u shakkar havas qilur. (Gadoiy)

Baytda qo'llangan she'riy san'atni aniqlang.

- A) ifrot B) apostrofa
C) laff-u nashr D) ishtiyoq

35. „Advokatlik osonmi?“ dramasida Davronbekning „do'xtur“ (shifokor) so'zini „do'xtar“ (qiz) deb tushunadi?

- A) Xudoyberdi B) Xushvaqt
C) Rapoil D) Haydarali

36. Fors-tojikcha „hazor doston“ so'zi nimani anglatadi?

- A) baxshi B) bulbul
C) qalam D) xirgoyi

1. Quyidagilarning qaysi bir mikrolit qurollar yasala boshlangan davrga mansub?

- A) dastlabki sun'iy metall - bronza kashf qilindi.
- B) kulolchilik buyumlari turli naqshlar bilan beztila boshlandi.
- C) hayvonlar qo'lga o'rgatila boshlandi.
- D) O'rta Osiyo janubida ibtidoiy ziroatchilikka o'tildi.

2. Quyidagi qonun hujjatlaridan qaysi biri 1993-yil sentabr oyida qabul qilinmagan?

- A) "Oliy Majlisga saylov o'tkazish tartibi to'g'risida"
- B) "Sudlar to'g'risida"
- C) "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"
- D) "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"

3. Qaysi javobda quyidagi voqealarning sodir bo'lgan yillari to'g'ri ko'rsatilgan?

1) Avstriya-Vengriyada ishchilar harakatiga qarshi "favqulodda qonun" qabul qilindi; 2) Misrlik Abdulqodir Sudanga gubernator etib tayinlandi; 3) Belgiya Kongo hududlarini bosib oldi.

- a) 1882-yil; b) 1883-yil; c) 1884-yil.
- A) 1-c, 2-b, 3-a B) 1-a, 2-b, 3-c
- C) 1-b, 2-c, 3-a D) 1-c, 2-a, 3-b

4. 1936-yil fevralda (a) va 1970-yil sentabrda (b) Xalq Fronti hukumat tepasiga kelgan davlatlarni aniqlang.

- A) a) Meksika, b) Kuba B) a) Ispaniya, b) Chili
- C) a) Braziliya, b) Fransiya D) a) Fransiya, b) Chili

5. 1796-yilda qaysi mamlakatda hokimiyat tepasiga yangi sulola kelgan?

- A) Afg'oniston B) Koreya
- C) Eron D) Xitoy

6. Quyidagi shaxslarni ularning ixtirolari bilan to'g'ri muvofiqlashtiring.

1) ichterlama mikrobi; 2) organik moddalarni sintez qilish usuli; 3) elektr bilan payvandlash usuli.

- a) Grinyar; b) Tomson; c) Eber.
- A) 1-c, 2-b, 3-a B) 1-a, 2-b, 3-c
- C) 1-b, 2-c, 3-a D) 1-c, 2-a, 3-b

7. XI asrga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Qoraxoniylar ikki bor Xurosonga hujum uyushtirishdi.
- B) Nuh I ga qarshi amakisi isyon ko'tardi.

- C) Sinchkori imoratlar qurish keng tarqaldi
- D) Ismoil Somoniy maqbarasi barpo etildi.

8. O'z hukmronligi davrida harbiy islohot o'tkazgan hukmdorlarni aniqlang.

- A) Karl V, O'rxon, Olimxon, amir Nasrullo
- B) Muhammad Rahimxon I, Otton I, Feruzshoh Tug'luq
- C) amir Nasrullo, Filipp IV, O'zbekxon
- D) Buyuk Karl, Ubaydulloxon, amir Muzaffar

9. XVIII asrning so'nggi choragida Fransiya hujum uyushtirgan davlatlarni aniqlang.

- A) Ispaniya, Italiya, Prussiya
- B) Avstriya, Prussiya, Buyuk Britaniya
- C) Avstriya, Prussiya, Rossiya
- D) Buyuk Britaniya, Ispaniya, Gollandiya

10. Respublikamizda qaysi poligrafiya kombinatlari Germaniyaning "Geydelberg" firmasi texnologiyasi bilan jihozlangan?

- A) Toshkent va Urganch poligrafiya kombinatlari
- B) Namangan va Termiz poligrafiya kombinatlari
- C) Farg'ona va Samarqand poligrafiya kombinatlari
- D) Toshkent va Nukus poligrafiya kombinatlari

11. Eneolit davridan boshlab O'rta Osiyoda ...

- 1) sug'orma dehqonchilik vujudga keldi;
- 2) xom g'ishtdan keng foydalana boshlandi;
- 3) kulolchilik qharxi va g'ildirak kashf etildi;
- 4) Jarqo'ton manzilgohi yuksak taraqqiyotga erishdi;
- 5) kulolchilik xumdonlaridan keng foydalana boshlandi;
- 6) sopol idishlar sirti naqshlar bilan bezatiladigan bo'ldi.
- A) 1, 2, 4, 5 B) 3, 4, 5, 6
- C) 1, 2, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5

12. Quyidagi voqealarning qaysi biri nisbatan oldinroq yuz bergan?

- A) Rim Papasi Fridrix I Barbarossaning 18 yoshli nabirasi german knyazlari tomonidan qirol sifatida tan olinishiga erishadi.
- B) mo'g'ul qo'shinlari Afg'oniston va Sharqiy Eronni egallab, Kavkaz orqali Dashti Qipchoqqa chiqishadi.
- C) Angliyada "Buyuk ozodlik xartiyasi" nomini olgan hujjat imzolanadi.
- D) Fransiya taxtiga Filipp IV o'tiradi.

13. VII asrning birichi choragida G'arbiy Turk xoqonligining chegaralari qaysi hududlargacha yetib borganligini aniqlang.

- A) sharqda – Oltoy, janubda – Sindgacha
- B) sharqda – Yettisuv, janubda – Murg'obgacha
- C) sharqda – Irtish, janubda – Sindgacha
- D) sharqda – Oloy, janubda – Amudaryogacha

14. Butunrossiya musulmonlarining 1917-yil iyul oyida bo'lib o'tgan qurultoyida ...

- A) Mustafo Cho'qay rahbarligida Musulmonlar Markaziy sho'rosi tuzildi.
- B) Butunrossiya musulmonlarining harbiy sho'rosi ta'sis etildi.
- C) "Ittifoqi Muslimin" ("Musulmonlar ittifoqi") siyosiy partiyasini tuzish g'oyasi ilgari surildi.
- D) Butunrossiya Musulmonlar sho'rosining Ijroiyo qo'mitasi ta'sis etildi.

15. Quyidagi qaysi davlatda "tiyul"deb yuritilgan yer egaligi turi mavjud bo'lgan?

- A) Dehli sultonligida
- B) Safaviylar davlatida
- C) Saljuqiylar turklar davlatida
- D) Xubilay ulusida

16. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoga uyushtirilgan yurishlarning birinchi bosqichi yakunida ...

- 1) Qo'qon xonligining shimoliy viloyatlari bosib olindi;
- 2) Turkiston general-gubernatori tuzildi;
- 3) Buxoro amirligining sharqiy hududlari bosib olindi;
- 4) Turkiston viloyati tuzildi;
- 5) Toshkent shahri zabt etildi;
- 6) Turkiston harbiy okrugi tuzildi.
- A) 1, 3, 6
- B) 2, 4, 5
- C) 1, 4, 5
- D) 2, 3, 6

17. Fransiyaning Marokashga nisbatan "huquqi"ni 1900-yilda (a) va 1904-yilda (b) tan olgan davlatlarni aniqlang.

- 1) Germaniya; 2) Italiya; 3) AQSH; 4) Buyuk Britaniya; 5) Rossiya.
- A) a-2, b-5
- B) a-4, b-5
- C) a-1, b-3
- D) a-2, b-4

18. 1917-yilning 26-aprelida Xiva xonligida ish boshlagan Majlisga rahbarlik qilgan shaxsni aniqlang.

- A) Husaynbek Matmurodov
- B) Musojon Saidjonov
- C) Polvonniyoz Yusupov
- D) Boboxxun Salimov

19. XX asr 30-yillarida Ispaniyada tashkil etilgan "Ispaniya avtonom o'nglar konfederatsiyasi" tashkilotida kimlar yetakchi edi?

- A) harbiy generalitet
- B) yirik sarmoyadorlar
- C) yirik yer egalari
- D) milliy burjuaziya

20. XVII asrda barpo etilgan me'moriy inshootlarni aniqlang.

- 1) Norbo'tabiy madrasasi; 2) Abdulazizxon madrasasi;
- 3) Mir Arab madrasasi; 4) Sherg'ozixon madrasasi.
- A) 2, 4
- B) 1, 3
- C) 2, 3
- D) 1, 4

21. XX asrning 20-yillaridagi milliy-hududiy chegaralash tadbirlariga qarshi chiqib, muqobil variant sifatida O'rta Osiyo Federatsiyasini tuzish taklifini ko'tarib chiqqan Turkiston va Buxoro vakillarini aniqlang.

- A) (a) Asfandiyorov, (b) Xo'janov
- B) (a) Husainov, (b) Otaboyev
- C) (a) Segizboyev, (b) Xo'jayev
- D) (a) Odinayev, (b) Yoqubov

22. "Baxtsiz kuyov" pyesasining muallifini aniqlang.

- A) Nusratulla Qudratulla o'g'li
- B) Abdulla Qodiriy
- C) Hamid Samadov
- D) Abdurauf Fitrat

23. Buyuk Britaniya Bosh vazirlarini hukumatni boshqargan davriga ko'ra to'g'ri tartibda belgilang.

- 1) J. Kallagen; 2) E. Xit; 3) G. Makmillan;
- 4) T. Bler; 5) A. Iden.
- A) 3, 5, 4, 2, 1
- B) 2, 5, 3, 1, 4
- C) 4, 5, 1, 3, 2
- D) 5, 3, 2, 1, 4

24. XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlati chegarasi shimoli-sharqda qaysi hududlar orqali o'tardi?

- A) Yettisuv va Oloy tog'lari
- B) Sharqiy Turkiston va Enasoy havzasi
- C) Orol dengizi va Sirdaryo bo'ylari
- D) Yettisuv va Dashti Qipchoq

25. Respublikamizda quyidagi faxriy unvonlardan ayni bir yilda ta'sis etilganlarini aniqlang.

- 1) "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi";
- 2) "O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi";

3) "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi";

4) "O'zbekiston iftixori".

A) 2, 3 B) 1, 2 C) 1, 4 D) 3, 4

26. XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek adabiyotida yaratilgan quyidagi asarlarning mualliflarini aniqlang.

1) "Hazrati inson"; 2) "Toshkentliklar"; 3) "Ixlos".

a) H. G'ulom; b) R. Fayziy; c) I. Rahim

A) 1-c, 2-b, 3-a B) 1-a, 2-c, 3-b

C) 1-b, 2-a, 3-c D) 1-c, 2-a, 3-b

27. Surxko'tal yodgorligidan topilgan yozuv ...

A) lotin alifbosidagi baqtriya yozuvi edi.

B) oromiy alifbosidagi so'g'd yozuvi edi.

C) yunon alifbosidagi kushon bitigi edi.

D) so'g'd alifbosidagi tohar bitigi edi.

28. 1957-yil dekabr oyida qaysi davlatlari o'rtasida savdo bitimi imzolangan?

A) Hindiston va Pokiston o'rtasida

B) SSSR va Yaponiya o'rtasida

C) Yaponiya va Xitoy o'rtasida

D) AQSH va Kuba o'rtasida

29. Quyidagi Fransiya qirollarini to'g'ri tartibda belgilang.

1) Lyudovik XI; 2) Karl VII; 3) Ioann Saxiy; 4) Filipp IV.

A) 3, 4, 1, 2

B) 2, 3, 4, 1

C) 4, 3, 2, 1

D) 1, 4, 2, 3

30. XV asr o'rtalarida Amudaryodan kechib o'tgan Abdulatif qaysi hududlarni osongina zabt etib, Mirzo Ulug'bekka qarshi Samarqandga yurish qilgan edi?

A) Toshkent, Chinoz, Jizzax

B) Termiz, Qarshi, Karmana

C) Termiz, Shahrisabz, Xuzor

D) Kalif, Shohruxiya, Xo'jand

31. Maurya podsholigi gullab-yashnagan asrda Rimda ...

A) "XII jadval" qonunlari qabul qilingan.

B) respublika tuzumi o'rnatilgan.

C) yollanma qo'shinga tayangan harbiylar real kuchga aylangan.

D) hamma fuqarolar qonun oldida teng deb e'lon qilingan qonunlar qabul qilingan.

32. 1918-1920-yillarda nashr etilgan bolshevistik ruhdagi nashrlarni aniqlang.

1) "Ishchilar qalqoni"; 2) "Ishtirokiyun"; 3) "Hurriyat";

4) "Mehnatkashlar tovushi"; 5) "Tong".

A) 1, 2, 4

B) 1, 3, 5

C) 2, 3, 4

D) 3, 4, 5

33. Tiriklik davrida o'z o'g'li foydasiga taxtdan voz kechgan hukmdorlarni aniqlang.

A) Ko'chunchixon, Nodir Muhammad, amir Haydar

B) Abdullaxon I, Abulfayzxon, Umarxon

C) Muhammad Alixon, Abdulazizxon, Abulg'oziy Bahodirxon

D) Doniyolbiy otaliq, Abulg'oziy Bahodirxon, Jonibek Sulton

34. Quyidagi arab davlatlarida chet el harbiy bazalari qachon tugatilganligini aniqlang.

1) Liviyada; 2) Marokashda;

3) Misrda.

a) 1956-yilda; b) 1961-yilda;

c) 1970-yilda.

A) 1-c, 2-a, 3-b

B) 1-a, 2-b, 3-c

C) 1-b, 2-c, 3-a

D) 1-c, 2-b, 3-a

35. XIX asrning 90-yillarida qaysi davlatlarda Sotsialistik partiyalar tashkil etilgan?

A) Italiya va Argentinada

B) Fransiya va Rossiya

C) Germaniya va Fransiya

D) Avstriya-Vengriya va Italiya

36. Italiya Respublikasining Birinchi Konstitutsiyasi kuchga kirgan yilda yozilgan asarni aniqlang.

A) "Doktor Faustus"

B) "O'lis kelajak haqida rivoyat"

C) "Chol va dengiz"

D) "Qo'ng'iroq kimning motamini kuylayotir"

Tuzuvchi: "Navoiy" ATM o'qituvchisi

Asliddin ABDANOV

Ushbu test bo'yicha fikr va e'tirozlaringizni telegramdagi @moziyUZ @abituriyentgazeta va

www.facebook.com/groups/Abituriyentuz manzilida kutamiz.

1. $A = 2^3 \cdot 3^4 \cdot 5 \cdot 7^2$ sonni juft natural bo'luvchilari soni toping.

- A) 120 B) 30 C) 90 D) 60

$$2. 7x + \frac{7x}{7x + \frac{7x}{7x + \frac{7x}{\ddots}}} = 6 \quad x = ?$$

A) $0 + \frac{1}{1 + \frac{1}{2 - \frac{1}{1 + \frac{1}{3 - \frac{1}{4}}}}}$

B) $0 + \frac{1}{1 + \frac{1}{2 + \frac{1}{1 + \frac{1}{3 + \frac{1}{3}}}}}$

C) $1 + \frac{1}{1 + \frac{1}{2 + \frac{1}{1 + \frac{1}{3 + \frac{1}{2}}}}}$

D) $2 - \frac{1}{1 + \frac{1}{2 - \frac{1}{1 + \frac{1}{3 + \frac{1}{2}}}}}$

3. $[-\sqrt{20}] + [-\sqrt{21}] + [-\sqrt{22}] + \dots + [-\sqrt{40}]$ ni hisoblang. Bu yerda $[a]$ -a sonning butun qismi.

- A) -124 B) -105 C) 124 D) 105

4. Qandaydir A sonni butun bo'luvchilari ko'paytmasini toping. (bu yerda A! birdan A gacha sonlar ko'paytmasi)

- A) $A^{\frac{NBS(A)}{2}}$ B) $A^{BBS(A)}$ C) $A^{NBS(A)}$ D) A!

5. $M(-21, 5)$ nuqtadan o'tuvchi va $A(2, -3)$ va $B(1, 4)$ nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziqqa perpendikulyar bo'lgan chiziqni $y = x$ ga nisbatan simmetrik funksiyasini toping.

- A) $x - 7y + 8 = 0$ B) $x - 7y - 56 = 0$
C) $7x - y - 56 = 0$ D) $x - 7y + 142 = 0$

6. -143 ni 69 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

- A) -5 B) 64 C) 74 D) aniqlab bo'lmaydi

7. $\operatorname{tg} x = x^2 - 2x + 2$ tenglama $[-1, \pi]$ kesmada nechta yechimga ega.

- A) 1 B) 0 C) 2 D) cheksiz ko'p

$$8. (3x - 2)P(x) + (2x + 17)P\left(\frac{x}{x-1}\right) = 5$$

bo'lsa, $P(x) = ?$

A) $\frac{1}{x-2}$

B) $\frac{x-2}{2x+1}$


C) $\frac{x+3}{2x-3}$

D) $\frac{1}{x+3}$

9. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyada ($b_1 > b_2$) va hadlari yig'indisi 12 ga, ikkinchi hadi 3 ga teng bo'lsa, $b_3 = ?$

- A) 6 B) $3/4$ C) $3/2$ D) $6/5$

10. Chizmada



$$x^2 = ?$$

- A) 10 B) 20 C) 100 D) 25

11. To'g'ri burchakli uchburchakka bir aylana ichki chizilgan. Shu aylana urinish nuqtasida uning katetlaridan birini to'g'ri burchak uchidan boshlab hisoblaganda uzunliklari 3 va 21 bo'lgan, kesmalarga ajratadi. Uchburchakning perimetrini toping.

- A) 52 B) 112 C) 104 D) 56

12. Tomonlari 50,48 va 14 teng bo'lgan uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylana markazlari orasidagi masofalarni toping.

- A) $5\sqrt{17}$ B) $5\sqrt{23}$ C) $5\sqrt{19}$ D) $5\sqrt{13}$

$$13. \sqrt{\frac{\sqrt{a^3} - \sqrt{b^3}}{\sqrt{a} - \sqrt{b}}} + \sqrt{ab} - \sqrt{\frac{\sqrt{a^3} + \sqrt{b^3}}{\sqrt{a} + \sqrt{b}}} - \sqrt{ab} \text{ ni soddalashtiring. } (b > a > 0)$$

- A) $\sqrt{a}$ B) $2\sqrt{a}$ C) 0 D) $2\sqrt{b}$

14. Muntazam uchburchakning ichidan olingan nuqtadan uchburchak tomonlarigacha bo'lgan masofalar mos holda $\vec{c}(2; 3; 1)$, $\vec{b}(1; 2; 1)$ va

$\vec{a}(1; 3; 2)$ vektorlarning absalyut qiymatlariga teng bo'lsa, uchbuchakning balandligini toping.

- A) 16 B) 18
C) $2\sqrt{14} + \sqrt{6}$ D) $\sqrt{14} + \sqrt{6}$

15. $R=8$ va $r=3$ radiusli aylanalar markazlari orasidagi masofa 13 ga teng bo'lsa, ularning umumiy urinmasini uzunligini toping.

- A) 10 B) 16 C) 13 D) 12

16. $\sin^3 22,5^\circ \cdot \cos 22,5^\circ - \sin 22,5^\circ \cdot \cos^3 22,5^\circ$ ni hisoblang.

- A) -1 B) 0,25 C) -0,25 D) 0

17. $\frac{\sqrt{x-3}-2}{\sqrt{x^2-8x-9}} \leq 0$ tengsizlikni yeching

- A) $[3; 7]$ C) $\{7\}$
B) $(-\infty; -1] \cup [3; 7] \cup [9; +\infty)$ D) $\emptyset$

18. $f(2x-1) + f(x-1) = 10x^2 - 12x + 2$ bo'lsa, $f(x) = ?$

- A) $x^2 + 3x - 1$ B) $x^2 + 3x$ C) $10x^2$ D) $2x^2 - 1$

19. $\begin{cases} x + y + z = 11 \\ 2x + y - 2z = 5 \\ 3x + 2y + 2z = 7 \end{cases}$ sistemani yechimlari x, y

va z bo'lsa $x \cdot y \cdot z = ?$

- A) 2035 B) 2514 C) 1065 D) 1305

20. Sonni 40 foizi $\sqrt[3]{20+14\sqrt{2}} + \sqrt[3]{20-14\sqrt{2}}$ ga teng bo'lsa shu soni yarmini toping.

- A) 10 B) 5 C) 15 D) 20

21. $25^{\log_5 x} = x + 56$ tenglama nechta yechimga ega.

- A) 1 B) 2 C) 0 D) cheksiz ko'p

22. $f(x) = \ln \arctg e^{-x}$ bo'lsa, $f'(x)$ ni toping.

- A) $\frac{e^x}{(e^{2x} + 1) \arctg e^{-x}}$ B) $-\frac{e^{-x}}{(e^{-2x} - 1) \arctg e^{-x}}$
C) $-\frac{e^x}{(e^{2x} + 1) \arctg e^{-x}}$ D) $\frac{e^x}{(e^{2x} - 1) \arctg e^{-x}}$

23. $\int_{-\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{2}} (x^2 - 5x + 6) \sin 3x dx$ integralni hisoblang.

- A) $\frac{\pi}{9}$ B) $\frac{\pi}{9}(1+5)$
C) $-\frac{\pi}{9}(1+5)$ D) $-\frac{2\pi}{9}$

24. Piramidaning asosi tomoni $4\sqrt{3}$ va o'tkir burchagi 30° ga teng bo'lgan rombdan iborat. Ushbu piramidaga ichki chizilgan konusning yasovchisi asos tekisligi bilan 60° li burchak tashkil etadi. Piramida hajmini konus hajmiga nisbatini toping.

- A) $\frac{\pi}{8}$ B) $\frac{8}{\pi}$ C) $\frac{4}{\pi}$ D) $\frac{8}{3\pi}$

25. 2542661^{45145} sonini 100 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

- A) 21 B) 81 C) 41 D) 01

26. $\begin{cases} \log_{\sqrt{3}} x + \log_3 y = \log_{\sqrt{3}} 3 \\ \log_3 x - \log_{\sqrt{3}} y = -\log_3 243 \end{cases}$ x va y

tenglamalar sistemasini yechimi bo'lsa, $\log_{\sqrt{3}} xy$ ni toping.

- A) 4 B) 6 C) 12 D) 10

27. $\left(1 - \frac{1}{3^2}\right) \left(2 - \frac{2}{4^2}\right) \left(3 - \frac{3}{5^2}\right) \dots \left(96 - \frac{96}{98^2}\right)$ ni hisoblang.

- A) Aniqlab bo'lmaydi B) $96! \cdot \frac{165}{245}$
C) 0 D) $96! \cdot 33$

28. Zuhra imtixonida 1 ta to'g'ri yechgan misol uchun 3 ball, 1 ta noto'g'ri misol uchun -1 ball oladi, u imtihondagi 100 ta savoldan nechtasini to'g'ri yechsa u imtihonda 192 ball to'playdi.

- A) 54 ta B) 68
C) 73 D) 82

29. Bobur oldinga 12 qadam va orqaga 7 qadam yuraradi, u 374 qadam yurganida necha qadam oldinga yurgan bo'ladi.

- A) 106 B) 241
C) 108 D) 228

30. $\int_3^e \log_3 x dx$ ni hisoblang.

A) $\log_3 \frac{27}{e^3}$

B) $\log_3 \frac{e^3}{27}$

C) $\log_3 \frac{3}{e}$

D) $\log_3 \frac{e}{3}$

31. Sanjar sakkizlik sanoq sistemasida (43; 67) oraliqda barcha butun sonlarni yozib chiqdi. Davron esa shu sonlardan 6 raqami, so'ng 5 raqami qatnashgan barcha sonlarni o'chirib tashladi. Qolgan sonlar yig'indisini sakkizlik sanoq sistemasida aniqlang va o'n uchlik sanoq sistemasiga o'tkazing.

A) 5A

B) 5B

C) 56

D) 7A

32. Ikkita bola o'zaro bahslashishdi.

Sanjar (S) aytdi: Axborot 2 turga bo'linadi;

Davron (D) aytdi: Axborot 3 turga bo'linadi.

Ushbu mantiqiy mulohazalar asosida mantiqiy


ifoda qiymatini aniqlang: $S \sim (\bar{D} \oplus S) \vee D$

A) rost B) yolg'on

C) ba'zi mantiqiy mulohazalar qiymatini aniqlab bo'lmaydi

D) ifodada xatolik bor

33. Quyidagi mantiqiy mulohazalar asosida shakldagi elektr zanjirida nima sodir bo'lishini aniqlang.



$$A = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{8x-1}{4x+1} = 2;$$

D = Birinchi shaxsiy kompyuter Truong Trang

Ti tomonidan yaratilgan;

$$G = 6432_7 = 4367_8;$$

$$J = \bar{A} \vee B \rightarrow (A \sim B) \wedge (A \oplus B) = \text{rost}$$

tenglama 3 ta yechimga ega;

$$N = \text{Frac}(4367 / (\text{int}((\text{Length}('sanjar') + 64) / 32))) = 0,5;$$

$$O = \frac{n(n-1)(2n+1)}{6} = 1^2 + 2^2 + \dots + n^2;$$

R = Kevin Tramp – Amerika prezidenti;

$$S = (-1 \sim 0) \rightarrow (1 \oplus -1);$$

V = 2022 – yili BAA da jahon chempionati o'tkaziladi.

A) lampochka yonadi

B) lampochka yonmaydi

C) ba'zi mulohazalarning qiymatini aniqlab bo'lmaydi

D) T.J.Y

34. Murakkab mantiqiy ifodada amallar ketma-ketligi quyidagilardan qaysi birida to'g'ri ko'rsatilgan?

A) $\neg; \wedge; \vee; \oplus; \rightarrow; \sim$.

B) $\neg; \wedge; \rightarrow; \sim; \vee; \oplus$.

C) $\neg; \wedge; \oplus; \rightarrow; \sim; \vee$.

D) $\neg; \wedge; \rightarrow; \sim; \oplus; \vee$.

35. Quyidagi html-hujjat kodi yozilishi bo'yicha kataklar ketma-ket sanalganda nechanchi katakda gipermurojaat qo'llanilgan?

```
<table> <tr> <td colspan=2> <a href="#test">
test </a> </td> <td rowspan=2> <ul> <sup> <li>
test </sup> </ul> </td> </tr> <tr> <td> <img
src=test.jpg> test </td> <td> <dl> <sub> <dd> test
</sub> </dl> </td> </tr> </table>
```

A) Birinchi katakda

B) Ikkinchi katakda

C) Uchinchi katakda

D) To'rtinchi katakda

36. Paskal. Dastur natijasini aniqlang:

Var a: array[1 .. 12] of integer; S, N: string;

i: integer;

Begin Randomize;

$$G_{um} = \sqrt{\frac{1}{R^2} + \left(\frac{1}{\omega L} - \omega C \right)^2}$$

Zanjirning bir qismi uchun Om qonunini o'tkazuvchanlik orqali quyidagicha yoziladi:

$$I = \frac{U}{R} = GU = U \cdot \sqrt{\frac{1}{R^2} + \left(\frac{1}{\omega L} - \omega C \right)^2}$$

Yuqoridagi formuladan foydalanib, elementlari parallel ulangan o'zgaruvchan tok zanjirning umumiy qarshiligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$Z = \frac{1}{\sqrt{\frac{1}{R^2} + \left(\frac{1}{\omega L} - \omega C \right)^2}} = \left(\frac{1}{R^2} + \left(\frac{1}{\omega L} - \omega C \right)^2 \right)^{-\frac{1}{2}}$$

Berilgan misolda rezonans paytidagi qarshilikning qanday bo'lishligi so'ralgan. Rezonans ro'y berishi uchun kelamma uchlaridagi kuchlanish va tok kuchlari orasidagi fazalar farqi nolga teng bo'lishi

kerak. Buning uchun zanjirning reaktiv qarshiligi nolga teng bo'lishi kerak. Mana shu tushunchaga asoslanib rezonans chastotani va zanjirning rezonans vaqtidagi umumiy qarshiligini topamiz.

$$\omega = \frac{1}{\sqrt{LC}} \quad Z = \frac{1}{\sqrt{\frac{1}{R^2} + 0}} = R$$

To'g'ri javob B.

2-misol.

Massasi 1 kg jism qanday balandlikdan (m) tushayotganda 4-sekund oxirida potensial va kinetik energiyalari $E_{p4}=450$ J, $E_{k4}=800$ J ga teng bo'ladi; $g=10$ m/s?

A) 12,5

B) 125

C) 125000

D) 1250

Ishlanishi.

Erkin tashlab yuborilgan jism dastlab potensial energiyaga ega bo'ladi. U pastga tezlanuvchan harakatlanib borishi davomida uning tezligi ortib boradi. Mos ravishda kinetik energiyasi ortib, potensial energiyasi kamayib boradi. Lekin harakatning ixtiyoriy onida uning to'la mexanik energiyasi, ya'ni kinetik va potensial energiyalarining yig'indisi o'zgarmas saqlanadi. 4-s dagi potensial va kinetik energiyalarining yig'indiini – to'la mexanik energiyani hisoblaymiz va uni jismning dastlabki potensial energiyasiga tenglaymiz:

$$E_{p4} + E_{k4} = E_{to'la} = mgh_o$$

$$450 + 800 = 1 \cdot 10 \cdot h_o \rightarrow h_o = \frac{450 + 800}{10} = 125 \text{ m}$$

To'g'ri javob B.

3-misol.

O'zgarmas tok manbaiga avval 9 Om qarshilik, so'ngra 4 Om qarshilik ulandi. Har ikkala holda birday vaqt ichida qarshiliklarda bir xil miqdorda issiqlik ajraladi. Manbaning ichki qarshiligini aniqlang (Om).

A) 36

B) 3

C) $\sqrt{6}$

D) 6

Ishlanishi.

Joul-Lens formulasidan foydalanib, ichki qarshilikka ega bo'lgan manbaga ulangan tashqi qarshilikdagi quvvatni topamiz. Har ikki hol uchun formuladan foydalanamiz va ularni tenglaymiz.

$$P = I^2 R = \left(\frac{E}{R+r} \right)^2 R$$

$$\left(\frac{E}{9+r} \right)^2 \cdot 9 = \left(\frac{E}{4+r} \right)^2 \cdot 4$$

$$\frac{3}{9+r} = \frac{2}{4+r} \rightarrow 12 + 3r = 18 + 2r \rightarrow r = 6 \text{ Om}$$

To'g'ri javob D.

NAVOIY ATM fizika o'qituvchisi Oybek Qudratov



@fizUZ
@faqat_fizika
@abituriyentgazeta



www.facebook.com/groups/Abituriyentuz

ZAMONAVIY DAVRIY JADVALNING AFZALLIKLARI

KIMYOVIIY ELEMENTLARNING ZAMONAVIY DAVRIY JADVALI
СОВРЕМЕННАЯ ПЕРИОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ХИМИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ

Qadimdan insoniyat ma'lum bir sondagi elementlarnigina bilar edi. Ular metallardan oltin, kumush, temir, mis, qalay, rux, qo'rg'oshin va metallmaslardan esa oltingugurt hisoblanardi. Dastlab kashf etilgan elementlardan biri bu fosfor bo'lib u alkimyogar Brant tomonidan kashf etilgan. Keyinchalik uyg'onish davri kimyogarlari tomonidan birin-ketin elementlar kashf etila boshlandi. Endi ularni ma'lum bir tartibga solish davr talabi bo'lib qoldi.

Birinchi bo'lib A. Lavuazye elementlarni o'xshash va farqli xususiyatlariga ko'ra sinflantirdi. U 33 ta moddalarni metall va metallmas deb ajratdi. Ulardan ba'zilar sof elementlar bo'lmasdan birikma holatida edi. Bundan tashqari Berselius, Debereyner, Nyulends, Shankartua kabi olimlar ma'lum bir darajada hissa qo'shgan bo'lsalarda, ko'pchilik e'tirofi bilan rus olimi D. I. Mendeleyevning 1869-yil Karlsrue shahrida bo'lib o'tgan kimyogarlarning qurultoyida taqdim etgan davriylik qonuniyatiga asoslangan jadvali (shuning uchun bu jadval davriy jadval deb ataladi) ko'p yillardan beri samarali foydalanib kelindi.

Mendeleyev tuzgan davriy jadval avvalgilaridan quyidagi afzalliklarga ega edi:

- Elementlar xossalari mos ravishda guruhlantirilganligi

- hali kashf etilmagan elementlarning xossalari haqida ham faraz qilina olishligi

P.S. 1870-yilda nemis kimyogari Meyer yaratgan davriy jadval Mendeleyev yaratgan davriy jadvalga o'xshash bo'lib farqi Meyer elementlarni atom hajmi va fizik xossalari ko'ra joylashtirdi. Mendeleyev esa elementlarni atom og'irliklari va kimyoviy xossalari ko'ra joylashtirgan. O'sha vaqtda 63 ta element mavjud bo'lgan.

Quyida Mendeleyevning 1869-yilda yaratgan davriy jadvalini ko'rishimiz mumkin:

Ueber die Beziehungen der Eigenschaften zu den Atomgewichten der Elemente. Von D. Mendeleeff. — Ordnet man Elemente nach zunehmenden Atomgewichten in verticale Reihen so, dass die Horizontalreihen analoge Elemente enthalten, wieder nach zunehmendem Atomgewicht geordnet, so erhält man folgende Zusammenstellung, aus der sich einige allgemeinere Folgerungen ableiten lassen.

H = 1	Li = 7	Na = 23	K = 39	Rb = 85,4	Cs = 133	Ba = 137	Th = 118?
Be = 9,4	B = 11	C = 12	N = 14	O = 16	F = 19	Ne = 20	
Mg = 24	Al = 27,4	Si = 28	P = 31	S = 32	Cl = 35,5	Ar = 40	
Ca = 40	Sc = 45	Ti = 48	V = 51,2	Cr = 52,4	Mn = 54,8	Fe = 55,9	Co = 58,6
Zn = 65,2	Ga = 69,7	Ge = 72,6	As = 74,9	Se = 78	Br = 79,4	Kr = 83,6	
Y = 88	Zr = 90	Nb = 94	Mo = 96	Tc = 98	Ru = 101,5	Rh = 104,4	Pd = 106,2
La = 138,9	Ce = 140,1	Pr = 140,9	Nd = 144,2	Pm = 145	Sm = 150,4	Eu = 151,9	Gd = 157,3
Er = 167,3	Tm = 168,9	Yb = 173,0	Lu = 175	Hf = 178,5	Ta = 180,9	W = 186,2	Re = 186,2
Os = 190	Ir = 192,2	Pt = 195,1	Au = 197	Hg = 200,6	Tl = 204	Pb = 207	Bi = 209

Quyida Meyerning 1870-yilda yaratgan davriy jadvalini ko'rishimiz mumkin:

Julius Lothar Meyer (1830-1895)

Table from *Annalen der Chemie, Supplementband 7*, 354 (1870).

I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX
B=11,0	Al=27,3					7In=113,4	Tl=202,7	
C=11,97	Si=28					Sn=117,8		Pb=206,4
N=14,01	P=30,9					Sb=122,1		Bi=207,5
O=15,96	31,98					Te=128,7		
	F=19,1	Cl=35,38				I=126,5		
		Mn=54,8				Ru=101,5		Os=198,6?
		Fe=55,9				Rh=104,1		Ir=196,7
		Co=Ni=58,6				Pd=106,2		Pt=196,7
Li=7,01	Na=22,99	K=39,04				Cs=132,7		
		Cu=63,3				Ag=107,66		Au=196,2
7Be=9,3	Mg=23,9	Ca=39,9				Ba=136,8		
		Zn=64,9				Cd=111,6		Hg=199,8

Albatta, yillar davomida unga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritildi (masalan, Mendeleyev talliy elementini I guruhga joylashtirgan edi) va kerakli yangiliklar bilan to'ldirib borildi (masalan Ramsey tomonidan inert gazlar kashf etilib, ularni galogenlar va ishqoriy metallar orasiga joylashtirishi) va shu kundagi ko'rinishga ega bo'ldi.

Keyinchalik, G. Mozli elementlar uchun atom massadan ko'ra, yadro zaryadi muhimroq ekanligini isbotladi. Chunki Ar va Te larning atom massalari o'zlaridan keyin keluvchi elementlar (K va I) dan katta bo'lsada, xossalari jihatdan biri inert gazlarga, ikkinchisi esa xalkogenlarga mos edi. Shundan so'ng Mozli davriy qonunni quyidagicha ta'rifladi:

Elementlarning yadro zaryadlari ortib borishi bilan, ularning va ular hosil qilgan birikmalarning xossalari davriylik kuzatiladi.

Davriy jadvalning uzun formasining afzalliklari:

- 1) Davriy jadval elementlar uchun muhimroq bo'lgan yadro zaryadi ortib borishiga asoslangan
- 2) Elementlarning o'rni bilan elektron konfiguratsiyasi tuzilishi korrelyatsiyasi yaqqol namoyon bo'ladi
- 3) Har bir davr bir qatorga joylashganligi uchun, mantiqan tugallangan. Ya'ni ishqoriy metall bilan boshanib inert gaz bilan tugallangan. Bunda elementlarning yadro zaryadlari ortib borishi bilan tashqi pog'onasi barqaror holatga keladi.
- 4) Mendeleyev jadvalidagi katta davrlardagi juft va toq qatorlar tushunchasi yo'qoladi.
- 5) Barcha oraliq elementlar davrning o'rtasiga keltirilgandan keyin VIII guruh holati ham aniqlashadi.

6) Guruhchalarning alohida guruhlariga o'tishi bilan bitta vertikal guruhdagi elementlar bir xil xossaga ega bo'ladi. Mendeleyev jadvalida fizik va kimyoviy xossalari keskin farq qilgan elementlar bitta guruhga joylashtirilgan edi. Masalan, xlor va marganes, kumush va natriy va hk. Ayniqsa kimyoni endigina o'rganayotgan maktab o'quvchilarida "nega har xil xossali elementlar bitta guruhda joylashganligini" tasavvur qilish ancha qiyinchilik tug'dir edi.

7) Metall va metallmaslar yaqqol ajralib qoladi. Bu yuqoridagi kabi yosh kimyogarlarga ancha qulaylik bo'ladi.

H	Metall																Metallmas		He				
Li	Be																	B	C	N	O	F	Ne
Na	Mg	Oraliq metallar																Al	Si	P	S	Cl	Ar
K	Ca	Sc	Ti	V	Cr	Mn	Fe	Co	Ni	Cu	Zn	Ga	Ge	As	Se	Br	Kr						
Rb	Sr	Y	Zr	Nb	Mo	Tc	Ru	Rh	Pd	Ag	Cd	In	Sn	Sb	Te	I	Xe						
Cs	Ba	(La, Ce)	Hf	Ta	W	Re	Os	Ir	Pt	Au	Hg	Tl	Pb	Bi	Po	At	Rn						
Fr	Ra	(Ac, Th, Pa)																					
			La	Ce	Pr	Nd	Pm	Sm	Eu	Gd	Tb	Dy	Ho	Er	Tm	Yb	Lu						
			Ac	Th	Pa	U	Np	Pu	Am	Cm	Bk	Cf	Es	Fm	Md	No	Lr						

* Qisqa ko'rinishda esa, metall va metallmaslikka bo'linish biroz noqulay edi. O'quvchilarga bor elementi tagidan astat elementi tagigacha diagonal chiziq tortib, yana qo'shimchasiga yuqoridagi elementlardan sariqlarini olamiz derdik. Endi rangsiz davriy jadvalda o'rgangan o'rta avlodning holini tasavvur qilavering...


Quyida qisqa ko'rinishdagi davriy jadvalni ko'rishimiz mumkin:

Д.И.Менделѣевъ химическѣй элементовъ периодическѣй системѣ
Периодическая система химических элементов Д.И.Менделѣева

Группы	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	XIII	XIV	XV	XVI	XVII	XVIII
I	1																	
II	2																	
III	3																	
IV	4																	
V	5																	
VI	6																	
VII	7																	

8) Har bir davrning sig'imi yaqqol namoyon bo'ladi: 2; 8; 8; 18; 18; 32; 32.

9) s, p, d, f-elementar to'rtta alohida-alohida qismlarga ajralib qoladi:



10) qo'shimcha d guruh elementlari oraliq metallar deyilishi sizga ma'lum. Bunga sabab u ikkita asosiy guruh ya'ni s va p elementlar orasida joylashganligi uchun shunday nomlangan. 7-punktdagi jadvalda bu narsa yaqqol namoyon bo'ladi.

11) Nihoyat, bu ko'rinishdagi davriy jadvalda elementlarning joyashuvini eslab qolish qulay.

12) IUPAC (International Union of Pure Applied Chemistry – nazariy va amaliy kimyo xalqaro ittifoqi) bo'yicha hozirgi kunda elementlar xossalari mos ravishda 18 ta guruhga ajratilgan. Har bir guruhda faqat o'xshash xossali elementlarga joylashadi.

P.S. Zamonaviy jadvalda davrlar uch guruhga bo'linadi:

- 1) kichik davrlar – 1,2,3-davrlar
- 2) o'rta davrlar – 4,5-davrlar
- 3) katta davrlar – 6,7-davrlar

Shunday qilib, biz elementlar davriy jadvali uzun varinatining qulayligiga, undan foydalanish osonligiga ishonamiz.

Quyida zamonaviy davriy jadvalga asoslangan testlardan namuna berilmoqda.

Yuqorida berilgan zamonaviy davriy jadvalda gorizantal joylashgan 7 ta davr hamda vertikal joylashgan 8 ta A (bosh) va 8 ta B (qo'shimcha) guruh bo'lib, s-elementlar 2 ta ustunda (chunki, s-orbitalga maksimal 2 ta elektron sig'adi), d-elementlar 10 ta ustunda (chunki, d-orbitalga maksimal 10 ta elektron sig'adi), p-elementlar 6 ta ustunda (chunki, p-orbitalga maksimal 6 ta elektron sig'adi) jami 18 ta ustundan iborat. Chet elda bu 18 ta ustunni 18 ta guruh deb o'rganishadi. Davriy jadval elementlarning davriy xossalriga asoslanib tuzilgan bo'lib, bu davriy xossalar asosiy (s va p) elementlarda kuzatiladi. Qo'shimcha guruhlarda esa har bir guruhning xossalriga asoslangan holda guruhlab chiqilgan. Masalan, 8B lar uchta bo'lib, ularning maksimal valentliklari bir xil hamda xossalari o'xshash bo'lganligi uchun bitta guruh ya'ni 8B sifatida o'rganamiz.

- 1A –ishqoriy metallar guruhi;
2A –ishqoriy yer metallar guruhi;
3A –yer metallar guruhi;
4A –uglerod guruhi;
5A –pniktogenlar (o'g'it hosil qiluvchilar);
6A –xalkogenlar (ruda hosil qiluvchilar);
7A –galogenlar (tuz hosil qiluvchilar);
8A –nodir gazlar (kamyob bo'lganligi uchun).

Endi zamonaviy davriy jadvalga asoslangan bir nechta testlar ko'ramiz:

1.

[illegible]

Yuqoridagi davriy jadvalda berilgan elementlar uchun quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?

- A) X – ishqoriy metall B) Z – galogen
C) T – nodir gaz D) Y – lantanoid

Yechimi:

Davriy jadvalda berilgan elementlardan X ishqoriy metall, Y oraliq metall, Z galogen va T nodir gaz. Y oraliq metall va lantanoid emas.

To'g'ri javob: D

2.

A blank periodic table grid is shown. The grid is 18 columns wide and 7 rows high. The elements are placed as follows:

- X** is in the 2nd column, 4th row.
- Y** is in the 17th column, 4th row.
- Z** is in the 12th column, 4th row.

Yuqoridagi davriy jadvalda berilgan X, Y va Z elementlari uchun,

1. X va Y o'zaro birikma hosil qilmaydi.

2. Z ning tartib raqami, X ning tartib raqamidan 8 taga ko'p.

3. X va Y ning atom hajmlari teng.
berilgan fikrlardan qays(lar)i noto'g'i?

- A) faqat 3
B) 1 va 2
C) 1 va 3
D) 1, 2 va 3

3.

[illegible]

Yuqoridagi davriy jadvalda berilgan X, Y, Z va T elementlari uchun,

1. T va Z o'zaro birikma hosil qilmaydi.
2. X va T o'rtasida elektron oldi-berdi jarayoni kuzatiladi.
3. X va Y atomlari birikma hosil qilganda doim elektron beradi.

berilgan fikrlardan qays(lar)i to'g'i?

- A) faqat 1
B) 1 va 2
C) 2 va 3
D) 1, 2 va 3

4.

[illegible]

Yuqoridagi davriy jadval uchun.

1. X ning massa soni 1 ga teng.
2. X ning tartib raqami 1 ga teng.
3. Guruh tartib raqami eng katta bo'lgani Z da.

berilgan fikrlardan qays(lar)i aniq to'g'ri?

- A) faqat 1
B) 1 va 2
C) 2 va 3
D) 1, 2 va 3

2 - D; 3 - D; 4 - C

**Toshkent tibbiyot akademiyasi, Tibbiy va biologik
kimyo kafedrası, "Navoiy" ATM o'qituvchisi
Otabek MO'YDINOV**

**“Navoiy” ATM kimyo fani o‘qituvchisi
Yusuf ABSOATOV**

Hurmatli Abituriyentlar!
Kimyoviy elementlarning zamonaviy davriy jadvali rangli
ko'rinishi keyingi sonda beriladi.

Sana	VERSAL TIZIMIGA KIRUVCHI XALQARO SHARTNOMALAR
1919-yil 28-iyun	Versal tinchlik shartnomasi Versal saroyida Germaniya bilan tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra: - Germaniya va uning ittifoqchilari - urushning aybdorlari deb e'lon qilindi; - Germaniya Avstriyaga bo'lgan da'volaridan voz kechishga majbur etildi. Avstriyaning mustaqilligi Antanta davlatlari tomonidan kafolatlanadigan bo'ldi; - Germaniyaga Antanta davlatlari foydasiga katta miqdorda reparatsiya to'lovi majburiyati yuklandi <u>Yevropadagi chegaralari masalasi:</u> - Fransiya - 1) Elzas va Lotaringiya qaytarib berildi; 2) Millatlar Ittifoqi boshqaruviga berilgan Saar viloyati ko'mir havzasi shaxtalari uning mulki bo'lib qoldi; - Polsha - 1) Bir paytlar Prussiya bosib olgan hududlar; 2) Sharqiy Pomore berildi. 3) Natijada Polsha Boltiq dengiziga chiqish imkoniga ega bo'ldi; - Belgiya - 1) Eypen, 2) Malmedi va 3) Morelle okruglarini (plebitsey asosida) oldi; - Litva - Klaypeda porti; - Daniyaga - Shlezvigning shimoliy qismi; Chexoslovakiyaga - Sileziyaning bir qismi berildi; - Gdansk shahri - Millatlar Ittifoqi boshqaruvidagi «erkin shahar» deb tan olindi; - Germaniya - 1) Polsha va 2) Chexoslovakiyaning mustaqilligini tan oldi; - Saar viloyati - 15 yil muddatga Millatlar Ittifoqi boshqaruviga berildi. 15 yildan so'ng bu viloyat taqdiri plebitsit yordamida hal etiladigan bo'ldi; - Reyn daryosining chap sohilini - 15 yil muddatga Antanta okkupatsiya qildi. Reyndan sharqqa qarab - 50 km hudud to'la demilitarizatsiyalashtirildi; - Shu tariqa Germaniya 1914-yilning 1-avgustiga qadar bo'lgan o'z hududining 1/8 qismini yo'qotdi <u>Afrika, Osiyo va Tinch okeanidagi mustamlakalari masalasida:</u> Germaniya mustamlakalaridan mahrum etilib, ular g'oliblar o'rtasida taqsimlandi: - Buyuk Britaniya va Fransiyaga birgalikda - 1) Togo va 2) Kamerun; - Buyuk Britaniyaga - 1) Tanganika (Germaniya Sharqiy Afrikasi); - Belgiyaga - Ruanda va Urundi; - Yaponiyaga - Tinch okeanidagi 1) Marshall, 2) Marian va 3) Karolina orollari, 4) Xitoyning Szyaochjou viloyati, 5) Shandun yarim oroli berildi - Janubiy Afrika Ittifoqiga - Germaniyaning Janubi-g'arbiy Afrikasi (Namibiya); - Avstraliyaga - Yangi Gvineyadagi Germaniya mustamlakalari; - Yangi Zelandiyaga - G'arbiy Samao orollari mandat tizimi asosida berildi <u>Harbiy sohada:</u> 1) Germaniyada umumiy harbiy majburiyat taqiqlandi; 2) Germaniya suv osti flotiga, katta harbiy kemalarga, harbiy va dengiz aviatsiyasi va tank qo'shinlariga ega bo'lish huquqidan mahrum etildi; 3) Germaniyaga 100 ming kishilik qo'shinga ega bo'lish (faqat ko'ngillilar asosida) huquqi berildi

1919-yil 10-sentabr	Sen-Jermen shartnomasi	Parij yaqinidagi Sen-Jermen saroyida Avstriya bilan tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra: - sobiq Avstriya-Vengriya imperiyasi tugatilganligini e'lon qilindi; - Avstriyadan 1) Italiyaga - Janubiy Tirolning bir qismi; Yugoslaviyaning ba'zi hududlari, Adriatika dengizi sohilidagi Triyest porti; 2) yangi tuzilgan Chexoslovakiyaga - Chexiya va Moraviya; 3) Ruminiyaga - Bukovina olib berildi; - qurolli kuchlarining soni 30 ming kishidan oshmasligi belgilab qo'yildi; - floti Antanta ixtiyoriga o'tkaziladigan bo'ldi; - Avstriyaning Germaniya bilan qo'shilishi batamom taqiqlab qo'yildi
1919-yil 27-noyabr	Neyi shartnomasi	Parijga yaqin Neyi shahrida Bolgariya bilan tinchlik shartnoma imzolandi. Unga ko'ra: - Bolgariya hududining katta qismi – 1) Yugoslaviya, 2) Gretsiya va 3) Ruminiyaga o'tdi; - Bolgariya 2,5 mlrd oltin frank kontributsiya to'lash majburiyati yuklandi; - Bolgariya qurolli kuchlarining soni 20 ming kishidan oshmasligi belgilandi
1920-yil 4-iyun	Trianon shartnomasi	Versal saroyining Trianon zalida Vengriya bilan tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra: - Vengriyadan 1) Yugoslaviyaga - Xorvatiya, Bachka va Banatning g'arbiy qismi; 2) Ruminiyaga - Transilvaniya va Banatning sharqiy qismi; 3) Chexoslovakiyaga - Slovakiya va Karpatoriti Ukrainasi olib berildi; - Vengriyaga berilgan og'ir zarbalardan biri – dengizga chiqish imkoniyatidan mahram etilganligi bo'ldi; - Vengriya 30 ming kishidan ortiq qurolli kuchga ega bo'la olmas edi
1920-yil 10-avgust	Sevr shartnomasi	Fransiyaning Sevr shaharchasida Usmonlilar Turkiyasi bilan tinchlik shartnoma imzolandi. Unga ko'ra: - Turkiyaga 1914-yilning 1-avgustigacha qaram bo'lgan hududlar - to'rt dan uch qismga kamaydi. - 1) Fransiyaga – Suriya va Livan; 2) Buyuk Britaniyaga – Falastin, Iroq, Transiordaniya mandat tizimi asosida; 3) Italiyaga esa – Dodekanes oroli berildi; - Saudiya Arabistoni va Yaman mustaqil deb e'lon qilindi; - Turkiya hududi Kichik Osiyo va Istambulni o'z ichiga olgan Yevropadagi ozgina joy bilan cheklab qo'yildi; - Qora dengiz bo'g'ozlari barcha davlatlar savdo va harbiy kemalari uchun ochiq deb e'lon qilindi. Amalda bo'g'ozlar ustidan 1) Buyuk Britaniya, 2) Fransiya va 3) Italiya nazorati o'rnatildi; - shartnoma g'oliblarga Turkiyaning moliyasi va butun iqtisodiyoti ustidan nazorat o'rnatish huquqini berdi; - Turkiya qurolli kuchlarining soni 50 ming kishidan oshmasligi belgilandi; - Turkiya o'z flotini Antanta ixtiyoriga topshirishi zarur edi
1921-yil aprel-may		- Komissiya reparatsiya miqdorini 1921-yilning 1-mayigacha belgilaydigan bo'ldi, Germaniya esa ungacha Antantaga 20 mlrd markani oltin, mahsulotlar, kemalar va qimmatbaho qog'ozlar bilan to'lashi zarur edi London konferensiyasiga ko'ra: - Germaniya to'laydigan reparatsiya umumiy miqdori 132 mlrd oltin marka miqdorida belgilandi. Uning taqsimlanishi: 1) Fransiyaga - 52 foizi; 2) Buyuk Britaniyaga - 22 foizi; 3) Italiyaga - 10 foizi; 4) Belgiyaga - 8 foizi; 5) Gretsiya, Ruminiya va Yugoslaviyaga - 6,5 foizi; 6) Yaponiyaga - 0,75 foizi to'lanishi lozim edi

INGLIZ TILI-1, 22-23-son 2017

1. C; 2. B; 3. A; 4. D; 5. A; 6. B; 7. C; 8. C; 9. D;
10. D; 11. A; 12. A; 13. C; 14. C; 15. B; 16. B; 17. A; 18. D;
19. C; 20. D; 21. B; 22. D; 23. D; 24. A; 25. D; 26. B; 27. C;
28. C; 29. D; 30. D; 31. D; 32. D; 33. C; 34. D; 35. C; 36. D

INGLIZ TILI-2, 22-23-son 2017

1. D; 2. C; 3. B; 4. D; 5. A; 6. C; 7. C; 8. D; 9. C;
10. A; 11. C; 12. C; 13. D; 14. D; 15. B; 16. D; 17. D; 18. B;
19. B; 20. A; 21. A; 22. C; 23. B; 24. C; 25. A; 26. A; 27. C;
28. A; 29. D; 30. A; 31. C; 32. A; 33. C; 34. B; 35. B; 36. C

INGLIZ TILI 24-son 2017

1. C; 2. B; 3. D; 4. A; 5. B; 6. D; 7. C; 8. C; 9. D;
10. D; 11. A; 12. C; 13. B; 14. D; 15. A; 16. C; 17. B; 18. C;
19. D; 20. B; 21. A; 22. B; 23. A; 24. A; 25. C; 26. D; 27. B;
28. D; 29. B; 30. C; 31. B; 32. C; 33. D; 34. B; 35. D; 36. D

INGLIZ TILI-1, 25-26-son 2017

1. B; 2. C; 3. D; 4. A; 5. A; 6. B; 7. B; 8. B; 9. D;
10. D; 11. D; 12. C; 13. B; 14. A; 15. D; 16. D; 17. D; 18. D;
19. C; 20. C; 21. D; 22. A; 23. A; 24. C; 25. B; 26. A; 27. C;
28. A; 29. D; 30. B; 31. C; 32. B; 33. C; 34. D; 35. A; 36. D

INGLIZ TILI-2, 25-26-son 2017

1. C; 2. A; 3. B; 4. B; 5. A; 6. C; 7. C; 8. C; 9. D;
10. A; 11. C; 12. C; 13. C; 14. B; 15. C; 16. D; 17. B; 18. A;
19. C; 20. B; 21. B; 22. A; 23. B; 24. A; 25. B; 26. D; 27. D;
28. D; 29. C; 30. B; 31. B; 32. C; 33. B; 34. C; 35. B; 36. A

MATEMATIKA-1, 22-23-son 2017

1. A; 2. B; 3. D; 4. A; 5. B; 6. C; 7. B; 8. C; 9. B;
10. A; 11. D; 12. A; 13. A; 14. A; 15. D; 16. B; 17. B; 18. C;
19. D; 20. A; 21. B; 22. C; 23. A; 24. C; 25. C; 26. B; 27. C;
28. C; 29. C; 30. B; 31. C; 32. C; 33. A; 34. B; 35. D; 36. C

MATEMATIKA-2, 22-23-son 2017

1. A; 3. D; 4. C; 5. B; 6. D; 7. B; 8. A; 9. D;
10. A; 11. B; 12. C; 13. A; 14. D; 15. B; 16. D; 17. B; 18. A;
19. D; 20. C; 21. D; 22. A; 23. C; 24. ?; 25. A; 26. B; 27. D;
28. A; 29. C; 30. D; 31. B; 32. A; 33. A; 34. B; 35. B; 36. D

MATEMATIKA 24-son 2017

1. A; 2. B; 3. B; 4. B; 5. C; 6. A; 7. C; 8. C; 9. B;
10. C; 11. C; 12. B; 13. A; 14. C; 15. C; 16. C; 17. B; 18. A;
19. B; 20. A; 21. C; 22. C; 23. B; 24. B; 25. B; 26. A; 27. B;
28. B; 29. A; 30. D; 31. C; 32. B; 33. B; 34. D; 35. D; 36. D

MATEMATIKA-1, 25-26-son 2017

1. C; 2. D; 3. B; 4. A; 5. B; 6. C; 7. D; 8. D; 9. A;
10. D; 11. B; 12. C; 13. A; 14. C; 15. D; 16. B; 17. B; 18. D;
19. C; 20. A; 21. A; 22. B; 23. C; 24. C; 25. B; 26. A; 27. D;
28. D; 29. D; 30. B; 31. C; 32. B; 33. A; 34. A; 35. C; 36. D

MATEMATIKA-2, 25-26-son 2017

1. B; 2. C; 3. D; 4. D; 5. A; 6. B; 7. C; 8. A; 9. C;
10. B; 11. C; 12. D; 13. A; 14. ?; 15. A; 16. B; 17. B; 18. D;
19. D; 20. A; 21. B; 22. C; 23. C; 24. A; 25. B; 26. D; 27. A;
28. B; 29. C; 30. D; 31. B; 32. A; 33. C; 34. D; 35. A; 36. C

ONA TILI-1, 22-23-son 2017

1. C; 2. D; 3. D; 4. A; 5. D; 6. A; 7. C; 8. A; 9. D;
10. C; 11. D; 12. D; 13. C; 14. A; 15. B; 16. D; 17. C; 18. A;
19. D; 20. B; 21. A; 22. B; 23. A; 24. D; 25. A; 26. A; 27. C;
28. C; 29. C; 30. A; 31. C; 32. B; 33. B; 34. B; 35. B; 36. C

ONA TILI-2, 22-23-son 2017

1. D; 2. C; 3. C; 4. B; 5. D; 6. B; 7. C; 8. A; 9. D;
10. C; 11. A; 12. B; 13. B; 14. D; 15. D; 16. D; 17. C; 18. A;
19. B; 20. B; 21. C; 22. D; 23. A; 24. C; 25. C; 26. B; 27. A;
28. C; 29. B; 30. C; 31. C; 32. D; 33. C; 34. D; 35. A; 36. D

ONA TILI 24-son 2017

1. A; 2. D; 3. A; 4. A; 5. C; 6. A; 7. D; 8. D; 9. A;
10. D; 11. B; 12. D; 13. C; 14. C; 15. D; 16. C; 17. A; 18. C;
19. C; 20. A; 21. C; 22. A; 23. C; 24. A; 25. C; 26. B; 27. A;
28. B; 29. C; 30. B; 31. B; 32. D; 33. C; 34. A; 35. A; 36. D

ONA TILI VA ADABIYOTI-1, 25-26-son 2017

1. D; 2. C; 3. C; 4. B; 5. D; 6. B; 7. C; 8. A; 9. D;
10. C; 11. A; 12. B; 13. B; 14. D; 15. D; 16. D; 17. C; 18. A;
19. B; 20. B; 21. C; 22. D; 23. A; 24. C; 25. C; 26. B; 27. A;
28. C; 29. B; 30. C; 31. C; 32. D; 33. C; 34. D; 35. A; 36. D

ONA TILI VA ADABIYOTI-2, 25-26-son 2017

1. C; 2. A; 3. B; 4. A; 5. B; 6. C; 7. C; 8. B; 9. A;
10. D; 11. A; 12. D; 13. A; 14. D; 15. B; 16. D; 17. B; 18. D;
19. D; 20. B; 21. C; 22. C; 23. B; 24. C; 25. D; 26. A; 27. A;
28. A; 29. D; 30. B; 31. D; 32. C; 33. A; 34. C; 35. D; 36. A

TARIX-1, 22-23-son 2017

1. C; 2. D; 3. A; 4. C; 5. B; 6. A; 7. C; 8. C; 9. D;
10. B; 11. D; 12. D; 13. B; 14. D; 15. A; 16. D; 17. B; 18. A;
19. A; 20. D; 21. D; 22. C; 23. D; 24. B; 25. A; 26. D; 27. C;
28. C; 29. A; 30. A; 31. C; 32. A; 33. C; 34. A; 35. B; 36. A

TARIX-2, 22-23-son 2017

1. B; 2. A; 3. A; 4. D; 5. B; 6. D; 7. C; 8. A; 9. C;
10. A; 11. C; 12. A; 13. D; 14. C; 15. C; 16. C; 17. B; 18. A;
19. C; 20. D; 21. D; 22. C; 23. B; 24. A; 25. B; 26. A; 27. D;
28. C; 29. C; 30. A; 31. D; 32. C; 33. A; 34. C; 35. B; 36. A

TARIX 24-son 2017

1. B; 2. B; 3. C; 4. A; 5. C; 6. C; 7. C; 8. D; 9. D;
10. B; 11. A; 12. B; 13. B; 14. A; 15. C; 16. C; 17. A; 18. C;
19. B; 20. B; 21. B; 22. B; 23. D; 24. B; 25. D; 26. C; 27. C;
28. B; 29. C; 30. B; 31. D; 32. A; 33. C; 34. D; 35. C; 36. A

TARIX-1, 25-26-son 2017

1. A; 2. D; 3. B; 4. D; 5. C; 6. D; 7. B; 8. A; 9. A;
10. C; 11. B; 12. A; 13. A; 14. A; 15. D; 16. C; 17. C; 18. C;
19. B; 20. A; 21. C; 22. C; 23. D; 24. C; 25. D; 26. A; 27. A;
28. D; 29. C; 30. A; 31. D; 32. A; 33. A; 34. B; 35. D; 36. B

TARIX-2, 25-26-son 2017

1. C; 2. C; 3. C; 4. B; 5. A; 6. D; 7. A; 8. D; 9. C;
10. A; 11. A; 12. A; 13. A; 14. D; 15. B; 16. C; 17. A; 18. A;
19. B; 20. A; 21. C; 22. B; 23. D; 24. C; 25. B; 26. B; 27. A;
28. C; 29. C; 30. D; 31. A; 32. B; 33. D; 34. A; 35. B; 36. C

BIOLOGIYA-1, 22-23-son 2017

1. D; 2. B; 3. B; 4. A; 5. C; 6. B; 7. D; 8. A; 9. D;
10. C; 11. B; 12. D; 13. A; 14. D; 15. D; 16. C; 17. D; 18. D;
19. C; 20. A; 21. D; 22. A; 23. C; 24. D; 25. A; 26. C; 27. B;
28. C; 29. B; 30. D; 31. D; 32. C; 33. B; 34. C; 35. B; 36. B

BIOLOGIYA 24-son 2017

1. A; 2. D; 3. D; 4. B; 5. B; 6. C; 7. D; 8. C; 9. D;
10. D; 11. A; 12. D; 13. D; 14. A; 15. B; 16. D; 17. D; 18. D;
19. B; 20. D; 21. A; 22. C; 23. C; 24. B; 25. C; 26. D; 27. A;
28. D; 29. D; 30. B; 31. A; 32. B; 33. D; 34. B; 35. D; 36. C

BIOLOGIYA-1, 25-26-son 2017

1. C; 2. B; 3. B; 4. B; 5. C; 6. A; 7. B; 8. A; 9. B;
10. A; 11. D; 12. A; 13. A; 14. A; 15. C; 16. C; 17. B; 18. A;
19. B; 20. A; 21. C; 22. B; 23. D; 24. C; 25. ?; 26. D; 27. D;
28. A; 29. B; 30. A; 31. D; 32. A; 33. C; 34. A; 35. B; 36. C

BIOLOGIYA-2, 25-26-son 2017

1. D; 2. B; 3. D; 4. D; 5. B; 6. A; 7. C; 8. D; 9. B;
10. D; 11. A; 12. C; 13. D; 14. B; 15. C; 16. A; 17. C; 18. B;
19. D; 20. C; 21. C; 22. B; 23. B; 24. C; 25. A; 26. B; 27. D;
28. B; 29. A; 30. C; 31. C; 32. C; 33. B; 34. D; 35. B; 36. A

FIZIKA-1, 22–23-son 2017

1. D; 2. A; 3. B; 4. C; 5. A; 6. B; 7. ?; 8. D; 9. C;
10. D; 11. ?; 12. D; 13. B; 14. A; 15. C; 16. B; 17. D; 18. A;
19. C; 20. B; 21. A; 22. D; 23. B; 24. A; 25. C; 26. B; 27. C;
28. D; 29. B; 30. D; 31. D; 32. A; 33. C; 34. A; 35. D; 36. A

FIZIKA 24-son 2017

1. A; 2. B; 3. D; 4. D; 5. C; 6. B; 7. C; 8. A; 9. C;
10. C; 11. B; 12. D; 13. B; 14. D; 15. A; 16. A; 17. A; 18. B;
19. B; 20. C; 21. A; 22. D; 23. B; 24. A; 25. D; 26. D; 27. B;
28. C; 29. C; 30. B; 31. D; 32. D; 33. C; 34. C; 35. A; 36. D

FIZIKA 25–26-son 2017

1. B; 2. C; 3. D; 4. B; 5. C; 6. A; 7. A; 8. C; 9. D;
10. C; 11. A; 12. D; 13. B; 14. B; 15. A; 16. B; 17. C; 18. D;
19. A; 20. A; 21. D; 22. C; 23. B; 24. B; 25. C; 26. B; 27. A;
28. D; 29. C; 30. A; 31. C; 32. D; 33. B; 34. D; 35. D; 36. A

GEOGRAFIYA 22–23-son 2017

1. C; 2. B; 3. A; 4. D; 5. A; 6. C; 7. B; 8. D; 9. A;
10. A; 11. B; 12. D; 13. D; 14. A; 15. C; 16. B; 17. C; 18. A;
19. B; 20. C; 21. B; 22. C; 23. D; 24. A; 25. A; 26. C; 27. B;
28. D; 29. C; 30. A; 31. D; 32. D; 33. A; 34. B; 35. B; 36. C

GEOGRAFIYA 24-son 2017

1. B; 2. D; 3. A; 4. C; 5. D; 6. C; 7. A; 8. B; 9. B;
10. A; 11. C; 12. D; 13. D; 14. C; 15. B; 16. A; 17. C; 18. B;
19. D; 20. A; 21. D; 22. A; 23. B; 24. C; 25. A; 26. C; 27. D;
28. A; 29. C; 30. D; 31. A; 32. B; 33. D; 34. A; 35. C; 36. B

GEOGRAFIYA-1, 25–26-son 2017

1. C; 2. B; 3. A; 4. D; 5. C; 6. A; 7. B; 8. D; 9. A;
10. D; 11. C; 12. C; 13. A; 14. D; 15. A; 16. C; 17. B; 18. D;
19. A; 20. C; 21. B; 22. B; 23. C; 24. A; 25. D; 26. A; 27. B;
28. D; 29. D; 30. D; 31. B; 32. B; 33. C; 34. D; 35. B; 36. A

KIMYO 22–23-son 2017

1. A; 2. C; 3. B; 4. D; 5. A; 6. B; 7. A; 8. D; 9. B;
10. A; 11. C; 12. C; 13. D; 14. A; 15. C; 16. A; 17. C; 18. C;
19. D; 20. B; 21. B; 22. D; 23. A; 24. A; 25. B; 26. B; 27. D;
28. B; 29. A; 30. B; 31. A; 32. D; 33. C; 34. C; 35. D; 36. B

KIMYO 24-son 2017

1. D; 2. D; 3. A; 4. D; 5. C; 6. C; 7. A; 8. B; 9. B;
10. A; 11. C; 12. D; 13. C; 14. D; 15. C; 16. C; 17. D; 18. C;
19. C; 20. D; 21. D; 22. C; 23. A; 24. B; 25. C; 26. B; 27. B;
28. B; 29. D; 30. C; 31. C; 32. B; 33. A; 34. B; 35. C; 36. C

KIMYO-1, 25–26-son 2017

1. A; 2. B; 3. B; 4. A; 5. C; 6. C; 7. A; 8. D; 9. A;
10. C; 11. B; 12. A; 13. D; 14. A; 15. D; 16. C; 17. D; 18. A;
19. C; 20. D; 21. C; 22. C; 23. B; 24. A; 25. A; 26. C; 27. B;
28. C; 29. A; 30. B; 31. C; 32. D; 33. B; 34. D; 35. B; 36. D

KIMYO-2, 25–26-son 2017

1. C; 2. C; 3. D; 4. B; 5. A; 6. B; 7. A; 8. D; 9. B;
10. B; 11. C; 12. B; 13. B; 14. A; 15. A; 16. D; 17. B; 18. C;
19. B; 20. D; 21. D; 22. A; 23. C; 24. B; 25. B; 26. B; 27. B;
28. B; 29. B; 30. B; 31. B; 32. D; 33. B; 34. B; 35. C; 36. B

МАТЕМАТИКА (рус) № 22–23, 2017

1. A; 2. C; 3. D; 4. C; 5. B; 6. D; 7. B; 8. A; 9. D;
10. A; 11. B; 12. C; 13. A; 14. D; 15. B; 16. D; 17. B; 18. A;
19. D; 20. C; 21. D; 22. A; 23. C; 24. B; 25. A; 26. B; 27. D;
28. A; 29. C; 30. D; 31. B; 32. A; 33. C; 34. C; 35. B; 36. D

NEMIS TILI 22–23-son 2017

1. B; 2. A; 3. C; 4. A; 5. D; 6. B; 7. B; 8. C; 9. D;
10. C; 11. A; 12. D; 13. A; 14. A; 15. C; 16. B; 17. B; 18. C;
19. A; 20. C; 21. D; 22. A; 23. D; 24. D; 25. A; 26. D; 27. C;
28. A; 29. B; 30. A; 31. D; 32. C; 33. B; 34. A; 35. B; 36. B

NEMIS TILI 24-son 2017

1. B; 2. A; 3. C; 4. A; 5. D; 6. B; 7. B; 8. C; 9. D;
10. C; 11. A; 12. D; 13. A; 14. A; 15. C; 16. B; 17. B; 18. C;
19. A; 20. C; 21. D; 22. A; 23. D; 24. D; 25. A; 26. D; 27. C;
28. A; 29. B; 30. A; 31. D; 32. C; 33. B; 34. A; 35. B; 36. D

ИСТОРИЯ № 22–23, 2017

1. C; 2. D; 3. D; 4. C; 5. A; 6. B; 7. A; 8. B; 9. A;
10. C; 11. A; 12. C; 13. C; 14. B; 15. D; 16. A; 17. A; 18. A;
19. D; 20. C; 21. B; 22. D; 23. B; 24. C; 25. A; 26. D; 27. B;
28. D; 29. B; 30. C; 31. A; 32. C; 33. A; 34. A; 35. D; 36. B

ИСТОРИЯ № 24, 2017

1. D; 2. D; 3. C; 4. A; 5. A; 6. C; 7. D; 8. B; 9. C;
10. D; 11. A; 12. A; 13. D; 14. B; 15. A; 16. C; 17. A; 18. C;
19. A; 20. D; 21. A; 22. C; 23. B; 24. D; 25. A; 26. B; 27. B;
28. A; 29. C; 30. D; 31. C; 32. B; 33. A; 34. D; 35. C; 36. B

ИСТОРИЯ № 25–26, 2017

1. D; 2. D; 3. C; 4. A; 5. C; 6. B; 7. C; 8. A; 9. C;
10. A; 11. D; 12. B; 13. B; 14. C; 15. A; 16. B; 17. B; 18. D;
19. A; 20. B; 21. C; 22. D; 23. D; 24. C; 25. A; 26. B; 27. D;
28. C; 29. A; 30. C; 31. A; 32. D; 33. D; 34. A; 35. B; 36. C

РУССКИЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА № 22–23, 2017

1. B; 2. D; 3. D; 4. A; 5. C; 6. A; 7. A; 8. D; 9. A;
10. A; 11. D; 12. C; 13. C; 14. B; 15. C; 16. D; 17. B; 18. B;
19. A; 20. D; 21. A; 22. B; 23. C; 24. C; 25. D; 26. D; 27. A;
28. B; 29. B; 30. C; 31. D; 32. A; 33. A; 34. C; 35. B; 36. B

РУССКИЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА № 24, 2017

1. A; 2. A; 3. B; 4. C; 5. B; 6. A; 7. A; 8. C; 9. A;
10. D; 11. C; 12. A; 13. A; 14. D; 15. B; 16. B; 17. D; 18. C;
19. C; 20. B; 21. C; 22. C; 23. D; 24. A; 25. D; 26. A; 27. B;
28. B; 29. B; 30. D; 31. C; 32. D; 33. A; 34. D; 35. C; 36. D

РУССКИЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА № 25–26, 2017

1. A; 2. C; 3. D; 4. C; 5. A; 6. A; 7. D; 8. B; 9. A;
10. C; 11. A; 12. B; 13. C; 14. A; 15. C; 16. B; 17. D; 18. A;
19. B; 20. C; 21. D; 22. B; 23. A; 24. B; 25. D; 26. B; 27. D;
28. A; 29. A; 30. C; 31. C; 32. A; 33. A; 34. C; 35. B; 36. B

ФИЗИКА (рус) № 22–23, 2017

1. C; 2. A; 3. A; 4. B; 5. D; 6. D; 7. B; 8. C; 9. B;
10. C; 11. A; 12. D; 13. C; 14. D; 15. B; 16. A; 17. A; 18. B;
19. C; 20. A; 21. B; 22. C; 23. D; 24. C; 25. D; 26. B; 27. A;
28. C; 29. A; 30. A; 31. D; 32. D; 33. C; 34. B; 35. D; 36. B

ФИЗИКА (рус) № 25–26, 2017

1. B; 2. B; 3. D; 4. B; 5. C; 6. B; 7. A; 8. B; 9. A;
10. A; 11. D; 12. B; 13. C; 14. D; 15. A; 16. C; 17. C; 18. A;
19. B; 20. C; 21. C; 22. D; 23. A; 24. C; 25. C; 26. C; 27. A;
28. A; 29. D; 30. C; 31. B; 32. B; 33. B; 34. B; 35. A; 36. B

ХИМИЯ (рус) № 22–23, 2017

1. B; 2. C; 3. C; 4. A; 5. C; 6. D; 7. A; 8. D; 9. D;
10. C; 11. D; 12. D; 13. B; 14. C; 15. C; 16. B; 17. A; 18. A;
19. D; 20. C; 21. B; 22. D; 23. B; 24. D; 25. C; 26. D; 27. B;
28. D; 29. D; 30. C; 31. C; 32. C; 33. A; 34. D; 35. A; 36. B

1. Qaysi harf?

Y F M A M I I A S O N ?

Harflar ketma-ketligi va quyidagi tenglik berilgan.

Y=1 F=2 M=3 A=4

M=5 I=6 I=7 A=8

S=9 O=10 N=11

Ketma-ketlikning keyingi harfini toping.

2. Sirli qotillik

Bir odam mashinasida sayohat qilayotgan vaqtida uzoqdan snayper bilan otib o'ldirilibdi. Lekin Uning mashinasining oynasi yopiq va mashinada hech qanday iz qolmagan. Bu voqea qanday sodir bo'lgan?

3. Olmalar soni

Bir bola qo'lidagi to'qqiz olmaning ikkitasidan boshqa hammasini yeb qo'ysa, bolada nechta olma qoladi?

4. Almashib qolgan pullar

Xorij o'lkalaridan birida bir odam bir kun bankomatlar ishlamay qolgani sababli bankka borib plastik kartochkasidagi pulni naqd pulga aylantirmoqchi bo'libdi. Bankir, o'sha kuni juda charchagani sababli qog'ozda yozilgan summadagi sentlar o'rnida turgan son miqdoricha dollar, dollar o'rnida turgan son miqdoricha sent (tanga) beribdi. Odam pulni sanamay bankdan chiqibdi-yu, magazinga borib 5 sentlik narsa olibdi. Shunda birdaniga cho'ntagidagi pulni sanab ko'rish xayoliga kelib qolibdi. Qarasa, cho'ntagidagi pul olishi kerak bo'lgan puldan ikki barobar ko'p edi. Odam aslida qancha pul olmoqchi edi?

5. Bolalarimning yoshi

Ancha vaqtdan beri ko'rishmagan do'stlar uchrashib qolishdi. Ularning orasida shunday suhbat bo'lib o'tibdi:

- Sening uchta bolang bor edi. Ular hozir necha yoshlar?

- Ularning yoshlari ko'paytmasi 36 ga teng.

- Bergan ma'lumoting kam.

- Ularning yoshlari yig'indisi sening uyingning raqamiga teng.

- Yana nimadir yetishmayapti.

- Kattasining sochlari sariq, ko'zlari qora.

Shundan so'ng u do'stining farzandlari yoshini bilib olibdi. U qanday bilgan?

6. Rasmdagi xatolik



Gazetaning 2017-yil 24-sonida berilgan mantiqiy savollarning javoblari:

1. Suvni isrof qilmaslik uchun (Anor qoldirgan dog'ni ketkazish uchun ko'p suv sarflanadi. Sahroliklar uchun esa bir tomchi suv ham oltinga teng).

2. Odamga.

3. Soya.

4. Josus, ayg'oqchi.

5. Derazadan tushgan yorug'lik tufayli Uatsonning o'ng yuzidagi soqol toza olingan, yorug'lik tushmagan tarafi chala olingan.

ABITURIYENT

Muassis:

“Ta’limda baholash va tadqiqotlar” MCHJ

OBUNA INDEKSI:

554

Bosh muharrir:
Oynisa
HOJIYEVA

Direktor:
Qobil
SHOIMOV

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0270-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 100059, Toshkent sh. Furqat ko'chasi, 2
Tel: (+99893) 530-15-51

Website: www.abituriyent.uz

Sahifalovchi-dizayner:
Behzod HAYDAROV

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Bichimi – 58x84 1/8.
Hajmi – 8 bosma taboq

Gazeta ikki haftada bir marta payshanba kuni chiqadi

ISSN 2181-6662

Gazeta «O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Adadi: 5600
Buyurtma № V-969

Gazeta materiallarini ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.


Reklama

NAVOIY




ABITURIYENTLAR TAYYORLOV MARKAZI

(93) 579 05 79




BARCHA FANLARDAN YANGI TESTLAR VA ULARNING TO'LIQ TAHLILI.
Har kuni, kun davomida. @abituriyentgazeta kanali. Ushbu kanalda
29-yanvardan boshlab virtual tarzda fan olimpiadalari o'tkazila boshlaydi.
Shuningdek, hafta davomida KUN_TESTI loyihasi davom etadi.

Fanlar bo'yicha savol-javoblar
va test tahlillari.
www.facebook.com/groups/Abituriyentuz



Kun davomida fizikadan testlar, tahlillar,
video yechimlar guruhi. t.me/faqat_fizika, @fizUZ.

Tarix fanidan o'zbek va rus tillarida testlar va
munozaralar guruhi. @moziy.Uz, @moziyUZ.



Matematika, geometriya va informatikadan testlar,
tahlillar va savol-javoblar guruhi.
@MATEM_NAVOIY_ATM.

Biologiya fanidan savol-javoblar guruhi.
@tabiiy_biologiya, @biomadridUZ.

Xizmatlar litsenziyalangan. № 006172-09